

D.I. Muqumova

S.B. Yarova

# Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning nazariy asoslari

/ Monografiya /



**TOSHKENT**  
**2023**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGASIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

---

**Muqumova Dilrabo Inatovna  
Yarova Sevara Boxodir qizi**

**Talabalarning ijtimoiy kompetentligini  
innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning  
nazariy asoslari**

**/ Monografiya /**

**TOSHKENT  
2023**

***Monografiya “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” MTU Ilmiy Kengashining 2023 yil 04 may № 9- sonli qarori asosida chop etishga tavsiya qilingan***

Monografiyada talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishdan iborat masalalar ko‘rib chiqilgan.

Mazkur monografiyada zamonaviy ta’lim tizimidagi murakkab jarayonlar yoritilgan bo‘lib, ular birinchi navbatda har bir kishining o‘z hayoti va kasbiy faoliyati, atrof-muhit va dunyo bilan munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatini shakllantirishda shaxsiy javobgarlikning oshishiga yordamchi manba sifatida xizmat qilish bilan birga, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va “Professional ta’lim” yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar, hamda barcha mutaxassislikdagi talabalarga mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:**

TIQXMMI MTU. p.f.d., professor

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, p.f.d., professori

**R.K.Choriyev**

**D.O.Ximmataliyev**

ISBN 978-9910-9836-9-6

D.I. Muqumova, S.B. Yarova  
/ Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning nazariy asoslari/  
Monografiya. -T.: “TIQXMMI” MTU, 2023. 125 bet.

---

**©. “TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO`JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI (“TIQXMMI” MTU), 2023**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. TALABALARNING IJTIMOYIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI.....</b>	<b>16</b>
1.1. Ijtimoiy kompetentlik: mohiyati, tuzilishi, funksiyalari.....	16
1.2. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirish shartlari. ....	25
1.3. Professional ta'limda ijtimoiy kompetentlikga asoslangan yondashuv.....	31
<b>II BOB. TALABALARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI INNOVATION HAMKORLIK ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI .....</b>	<b>48</b>
2.1. Ijtimoiy kompetentli shaxsni tarbiyalashning ekzistensial yondashuvi.....	48
2.2. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida zamonaviy mutaxassisni tarbiyalashda ta'lim muassasasining ijtimoiy-pedagogik vazifalari.....	55
2.3. Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish metodikasi.....	69
<b>III BOB. TALABALARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI INNOVATION HAMKORLIK ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH .....</b>	<b>77</b>
3.1. Talabalarning tajribasi va ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish muammolarini tahlil qilish (tadqiqot natijalari asosida).....	77
3.2. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modelining tahlili.....	91
3.3. Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish tahlili .....	104
<b>XULOSA VA TAVSIYALAR .....</b>	<b>110</b>
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>113</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>117</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>120</b>

## **Kirish**

Xozirda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama etuk, barkamol, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilayapti. Professional ta'lim tizimidagi kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish, sohani jadal rivojlantirish va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi uzviy aloqa tizimini takomillashtirish bo'yicha ularning o'rtasida o'zaro manfaatli innovatsion hamkorlikga erishilmoqda.

Ilmiy va innovatsion sohalardagi hamkorlik mamlakatning global iqtisodiy makondagi nufuzini oshiradi

Shiddat bilan yangilanayotgan zamonda ixtirolar, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion g'oyalar, texnik ishlanmalar va ularni tijoratlashtirish o'ta muhim sanaladi. Aynan ularning ko'lami va sifati raqobatbardosh, daromadi yuqori mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. O'z navbatida, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish mamlakat ilmiy salohiyati darajasini belgilaydi.

Ilmiy ishlanma va texnologik yangiliklar jamiyat hayotining barcha jabhalarini bog'lovchi mexanizmga aylanayotgan hozirgi davrda mazkur sohalarda hamkorlikni kengaytirmay turib, jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishib bo'lmaydi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ham ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Vazirlik faoliyati samaradorligini oshirish va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish maqsadida Germaniya, AQSh, Qozog'iston, Avstriyadan yuqori malakali xorijiy mutaxassislar maslahatchi sifatida jalb qilindi.

Fan va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Xitoy, Rossiya, Hindiston, Belarus, Qirg'iziston, Tojikiston hamda MDH bilan hukumatlararo bitimlar imzolandi hamda Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Koreya, AQSh, Turkiya, Yaponiya va barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan, shuningdek, BMT, Jahon banki, YUNESKO, ShHT, Islom taraqqiyot banki,

Evropa iqtisodiy komissiyasi, MDH va boshqa tashkilotlar bilan yaqindan aloqalar oʻrnatilgani ham soha rivojiga xizmat qilmoqda.

Xorijiy hamkorlikdagi ilmiy loyihalar.

Ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlikda xorijiy mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan qoʻshma ilmiy loyihalarning oʻrni katta. Qoʻshma loyihalar ikkala tomonning umumiy manfaatlariga xizmat qiladi. Isroil, Turkmaniston, Eron, Belarus, Rossiya, Vengriya va EAPI (Evro Osiyo ilmiy tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash uyushmasi) bilan hamkorlik doirasida 2022-2023 yillarda yuzdan ortiq xalqaro tadqiqot loyihasini moliyalashtirish rejalashtirilgan boʻlib, ular qishloq xoʻjaligi va texnika kabi ahamiyatli sohalardan tortib, sunʼiy intellekt va gen muhandisligi kabi zamonaviy yuqori texnologiyalarni qamrab oladi.

Vazirlik tomonidan eʼlon qilingan fundamental loyihalar tanlovlariga qoʻyilgan talablardan biri xorijiy ekspertlarni loyihaga hamrahbar etib jalb qilishdir. Xorijdagi nufuzli universitet va ilmiy markazlarda faoliyat koʻrsatayotgan, loyiha mavzusi yoʻnalishida muhim natijalarga erishgan, Xirsh indeksi 5 va undan yuqori boʻlgan etakchi olim hamrahbar sifatida belgilanishi tadqiqotlarning yanada sifatli boʻlishini taʼminlamoqda. Masalan, Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi va Rossiyaning Kurchatov instituti oʻrtasida uzumning yangi navlarini yaratish boʻyicha hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, genom axborotlari asosida uzum seleksiyasi uchun yangi avlod texnologiyalari yaratiladi.

Doktorantura, stajyor-tadqiqotchilik va malaka oshirish ilmiy faoliyatning ajralmas qismidir. Joriy yilda falsafa doktori va fan doktori ilmiy darajasini olish uchun 1800 kishi qabul qilingan boʻlib, bu 2019 yildagi koʻrsatkichdan 65 foiz koʻproqdir. Vazirlik tomonidan bu yoʻnalishda ham xalqaro aloqalar kengaytirilmoqda. Xususan, Vengriya, Rossiya, Belarus va Turkiya bilan hamkorliklar natijasida oʻzbekistonliklar uchun xorijda 150 taga yaqin maqsadli kvota ajratilishiga kelishilgan.

Izlanishlarning natijalari nafaqat Oʻzbekiston, balki dunyo hamjamiyati uchun ham ahamiyatli boʻlishi zarur. Bunday xalqaro darajani taʼminlash

maqsadida mamlakatimizdagi yosh olim va mutaxassislar xorijiy davlatlarga borib, ularning tajribasini, infratuzilma hamda yutuqlarini o'rganishadi. Aytish joiz, 2019-2020 yillarda 231 nafar yosh olim AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Belarus, Janubiy Koreya kabi 21 ta davlatga yuborildi.

2021 yilda barcha sohalar bo'yicha 37 nafar yosh olim etakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborildi. 2022 yilda saralab olingan 161 nafar nomzodning yuborilishi rejalashtirilgan.

Startup ekotizimi yangilik yaratishda muhim bosqich: Butun dunyoda innovatsiya va startup bir-biri bilan chambarchas bog'liq atamalarga aylangan. Startaplar bilan bugun abstrakt g'oyalarni haqiqiy mahsulot va xizmatlarga aylantirish mumkin va bunda ilm-fanning o'rni katta.

Startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida birgina 2021 yil davomida jami 4 ta tanlov e'lon qilingan bo'lsa, ularning 2 tasi qo'shma xalqaro startup loyihalar tanlovi ekani ahamiyatli. Bular Rossiya Federatsiyasi Innovatsiyalarni rag'batlantirish jamg'armasi hamda Vengriya Tashqi ishlar va savdo vazirligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tanlovlardir. Bugungi kunga qadar 10 ga yaqin loyiha uchun O'zbekiston tomonidan qariyb 8 milliard so'm ajratilgan bo'lib, natijada axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi mahsulot va xizmatlar yaratilgan.

Har yili onlayn formatda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning Startup forumi bo'lib o'tadi. Joriy yilda Hindiston tomonidan onlayn formatda uyushtirilgan forumda startaplarning o'zaro ko'p tomonlama hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan plenar sessiya, seminar, tajriba almashish uchun ma'lumotlar bazasi, etakchi hind inkubatorlari bo'ylab virtual turlar tashkil etildi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishni bir-biri bilan bog'lashda muhim bo'lgan texnologik parklar faoliyatini yo'lga qo'yishda Turkiya, Vengriya va Xitoy bilan yaqin aloqalar o'rnatilgan. Xususan, O'zbekistondagi eng yirik texnopark — "Inno" menejmentiga Turkiyaning eng yirik texnologik parklaridan biri bo'lgan "Yildiz" muassasasi mutaxassislari jalb qilingan. Texnoparklarda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish bilan bir qatorda tayyor texnologiyalarni xorijdan olib



kirish, ya'ni transfer qilish amaliyotidan ham foydalanilyapti. Shu o'rinda Slovakiya bilan hamkorlikda o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi apparatlari ishlab chiqarish texnologiyalari joriy qilinganini yodga olish o'rinlidir. O'zbekistonga investitsiya olib kirish va yangi yuqori qiymatli ish o'rinlarini yaratish bilan birgalikda, ushbu texnologiyaning transferi koronavirus infeksiyasi og'ir ahvolga olib kelgan vaziyatlarda ko'plab insonning hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Yana bir misol: Isroildan sun'iy yo'ldosh orqali suv quvurlarini o'rganish va raqamlashtirish texnologiyasi transfer qilindi. Natijada Toshkent shahrining o'zida 3760 ta suvning sizib chiqishi nuqtalari aniqlandi va deyarli 5 milliard so'm zararning oldi olindi.

Ilmiy faoliyat davomida laboratoriya jihozlari va qurilmalari hamda muntazam ravishda reagent, reaktiv va boshqa xomashyolar talab etiladi. Ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida Germaniyaning "LMS Consult" va "Medeg Warenhandels" kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatilib, maxsus omborxonalar va ilmiy-tadqiqot institutlariga xizmat ko'rsatuvchi laboratoriya tashkil etilmoqda. Bu soha olimlari faoliyati uchun ko'plab qulayliklarni tuhfa etadi.

Albatta, har qanday ilmiy loyihani amalga oshirish katta mablag' talab qiladi. Bunday vaziyatda mamlakatimizdagi ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim sanaladi. Buning uchun vazirlik xususiy sektor va xorijiy sarmoyalarni jalb qilib kelmoqda.

O'zbekiston va Xitoy tomonidan moliyalashtiriladigan qo'shma grantlar, shuningdek, yosh olimlar almashinuvi natijasida koronavirus pandemiyasi boshlanayotgan davrda Innovatsion rivojlanish vazirligi COVID-19 ga qarshi kurashda katta hamkorlik dasturini amalga oshirishga kirishdi. Xususan, dori-darmon, test tizimlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar qilindi. Ayni keza vaktsina yaratish va undan foydalanish loyihasini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi. Bu davrda innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi ilg'or texnologiyalar markazining Xitoy fanlar akademiyasi mikrobiologiya instituti bilan hamkorligi yo'lga qo'yilib, "Zhifei Longcom Biopharmaceutical" farmatsevtika kompaniyasi bilan sanoat hamkorligi boshlandi.

Ilg'or texnologiyalar markazi hamda sog'liqni saqlash vazirligi Virusologiya instituti olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot va tashkiliy ishlari tufayli Xitoy O'zbekistonni hammuallif sifatida tan oldi va vaktsinaga ZF-UZ-VAC2001 nomini berish to'g'risida qo'shma qaror qabul qilindi. Bu yutuq mamlakatimizga o'z vaktsinasiga ega davlatlar qatoriga kirish imkonini berdi.

Xitoylik hamkorlar ishtirokidagi loyihalardan yana biri Xitoy fanlar akademiyasi hamda Shinjon fizika va kimyo institutining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hisobiga amalga oshirilib, mamlakatimizda dorivor o'simliklarni sintez qiluvchi va yiliga 36 million dollarga teng miqdorda farmatsevtika mahsulotlari uchun qayta ishlangan xomashyo tayyorlovchi korxonadir.

Shuningdek, ilm-fanni moliyalashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida venchur moliyalashtirish belgilandi va dastlabki ustav jamg'armasi 15 milliard so'm bo'lgan milliy venchur fondi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma yuqori texnologiyaga asoslangan kichik korxonalarni moliyalashtirish, ularni kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Koreya sanoat texnologiyalari instituti bilan mis sanoatiga texnologiyalar transferi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, ilm-fan va innovatsiya bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Toshkent shahrining Bektemir tumanida 400 gektar maydonda "Smart-siti" barpo qilish uchun ham ushbu mamlakatning yirik kompaniyalari jalb qilinyapti. Buning uchun Janubiy Koreya hukumatining "Aqlli shaharsozlik" dasturi doirasida grant mablag'lar ajratiladi.

O'zbekiston ulkan ilmiy salohiyatga ega mamlakat. Mazkur yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik imkoniyatlarimiz yanada kengayishiga, yuqori marralarga erishishimizga xizmat qiladi. Ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlik yangi ish o'rinlari yaratilishi, aholi farovonligini oshishiga, mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bartaraf etilishiga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'l ochishi kerak. Buning uchun aloqalar o'rnatilgan mamlakatlarning rivojlangan soha va tarmoqlariga ko'proq e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz. Misol uchun, Rossiya, Italiya va Chili bilan uzumchilik va vinochilik sohasida hamkorlik kengaytirilsa, Hindiston bilan biotexnologiya va

urug'chilik sohasi rivojlantiriladi. Qardosh turk xalqi bilan barcha sohalarda aloqalar kengayib borayotganiga qaramay, texnoparklarni rivojlantirish va axborot xurujiga qarshi kurashish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizning global iqtisodiy makondagi nufuzini yuksaltirishda ilmiy va innovatsion sohalardagi xalqaro hamkorlikning ahamiyati katta. Qolaversa, bu boradagi ishlar global innovatsion indeks ko'rsatkichlari yuqorilashiga ham xizmat qiladi. Ilg'or innovatsion texnologiyalar esa milliy iqtisodiyotimizning samaradorligi va mehnat unumini oshiradi.

Ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning xuquqiy me'yoriy asoslari yaratildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri xisoblangan oliy ta'lim tizimida yuqori malakali professor o'qituvchilarning malakasini oshirish bilan ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mehnatga ijodiy yondashishini yanada kuchaytirish va yuksak intizomni shakllantirish vazifasini qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi "innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-916 son qarori, 2011 yil 20-maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1533-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 26 avgustdagi 07-03-14-10-sonli "2015-2017 yillarda suv xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish sifatini tubdan yaxshilash hamda o'quv muassasalari bilan suv xo'jaligi tashkilotlari sohaga aloqador boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar o'rtasida o'rnatilgan aloqa tizimini yanada mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi bayoni, 2015 yil 4 noyabrdagi "Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish innovatsion hamkorlikni amalga oshirishni tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 47 sonli va 18 noyabrdagi 49-sonli Majlis bayonlarida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida muhim yo'nalishlari belgilab berildi:

- Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari, mustaqil izlanuvchilari va iqtidorli talabalarining intellektual salohiyatini professional ta’limi hududiy boshqarmasi tasarrufidagi kasb-hunar maktablaridagi real muammolarni yechishga safarbar qilish.

- Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari, mustaqil izlanuvchilar va iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatlari natijasida yaratilayotgan ishlanmalarni ishlab chiqarishga o‘z vaqtida joriy etish.

- Hududiy boshqarma tasarrufidagi professional ta’lim bazasida talabalarining o‘quv, malakaviy va bitiruv oldi amaliyotlarini tashkillashtirish, o‘quv rejalari va fan dasturlariga real iqtisodiyot sub’ektlari talablariga mos ravishda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda takliflarni ishlab chiqish.

- Qishloq va suv xo‘jaligi xo‘jaligi sohalaridagi professional ta’limlar uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish, soha fanini jadal rivojlantirish va o‘quv muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasidagi aloqa tizimini takomillashtirish, shuningdek ularning o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni o‘rnatish;

- Bo‘lajak professional ta’limi o‘qituvchilari, jumladan ilmiy va ilmiy – pedagogik kadrlar va magistrlar tayyorlashda ishlab chiqarish tashkilotlarining moddiy texnik bazasi va salohiyatidan foydalanish xamda o‘quv va ilmiy – tadqiqot muassasalari salohiyati va bazasidan unumli foydalangan holda ularni rivojlantirish;

- Bo‘sh ish o‘rinlari va istiqbolda yangi mutaxassislarga bo‘ladigan ehtiyojlar haqidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, bitiruvchilarni malakaviy bitiruv ishlarini va dissertasiyalarini bajarishlarida va ishga joylashtirishda yaqindan yordam berish.

Ijtimoiylashgan va erkin fikrlovchi pedagoglarga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi professional ta’lim jarayonini innovatsion yondashuv va zamonaviy usullar asosida rivojlantirish, amalga oshirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratishning dolzarbligini oshirmoqda. Jumladan, professional ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta’lim jarayonini innovatsion kreativ texnologiyalar

vositasida takomillashtirish orqali ularning kreativ kompetentsiyalarini, pedagogik intiyutsiyalarini, mustaqil harakat qilish, moslashuvchanlik, kasbiy identifikatsiyalari, erkin fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning turli variantlarini qo'llagan holda, uning o'ziga xos xususiyati, o'qitish mazmuni va o'quv me'yoriy xujjatlari mazmunini takomillashtirishni taqozo etadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib tadqiqot ishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga bag'ishlangan deb ayta olamiz. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning "demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion hamkorlik va iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan bo'lib, professional ta'limni rivojlanish jarayoni va tendentsiyalari, mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik hamda ta'lim texnologiyalarni qo'llash muammolari, faoliyatning muayyan turlarida mutaxassisda "ijtimoiy kompetentlik"ni shakllantirish masalalari, bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan. Ilmiy tadqiqot ishini bajarishda professional ta'lim yo'nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentliklarini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish metodikasini maqsad qilib belgilagan.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi - zamonaviy ta'lim tizimidagi murakkab jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular birinchi navbatda har bir kishining o'z hayoti va kasbiy faoliyati, atrof-muhit va dunyo bilan munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini shakllantirishda shaxsiy javobgarligining oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu to'g'ridan-to'g'ri talaba yoshlarning ijtimoiylashuvi bilan bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy kompetentlik, shuningdek uning rivojlanish darajasi va uni takomillashtirishga tayyorligi ham muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy innovatsion rivojlanish jarayonida ijtimoiy kompetentlik talabalarda oliy ma'lumot olish bilan bir qatorda rivojlanib boradi. Talabalar jamoasi yosh avlod hayotidagi muhim davrdir. Oliy ta'lim samaradorligini oshirish, kasbiy va ijtimoiy kompetentlikni takomillashtirish uchun strategik resurslarni o'z

ichiga olgan yosh mutaxassislarni tayyorlash, sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ijtimoiy sohada samarali hamkorlikni, kasbiy va ijtimoiy sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanishni belgilaydi.

OTMlarda yosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash muammolarini hal qilish, birinchi navbatda, zamonaviy ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari va mamlakatda iqtisodiy o'sish va barqarorlashuvning eng muhim omili sifatida ta'limda yangi qiyinchiliklar bilan belgilanadigan kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish bilan bog'liq; ikkinchidan, oliy ta'limda innovatsion hamkorlikni tashkil etish jarayonini ilmiy asoslash zarurati; uchinchidan, zamonaviy muammolarni hal qilishga qodir zamonaviy mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan ta'lim sohasidagi siyosatning innovatsion maqsad va vazifalari.

Tadqiqot ishimizning vazifalaridan biri ham Respublikamizda hayotiy va kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladigan, ijtimoiy va kasbiy vakolatlarga ega bo'lgan, inson zaxirasini tayyorlashni, kasbiy samaradorlikni va hayotning barcha sohalarida ijtimoiy talabni ta'minlaydigan mutaxassis shaxsini shakllantirishdan iboratdir.

Shu bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishimiz talabalarning ijtimoiy va kasbiy mahoratini shakllantirishga yordam beradigan sharoitlarni yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Biroq, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar oliy ta'lim bitiruvchilarining ijtimoiy va kasbiy vakolatlarini shakllantirishga qo'shgan hissasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Ularning aksariyati o'zaro hamkorlik qilish tajribasiga ega emaslar, ular har doim ham murakkab ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv yechimlarni qanday topishni bilishmaydi, ijtimoiy va madaniyatlararo o'zaro munosabatlarga, o'z-o'zini tarbiyalashga va ijtimoiy sheriklikka to'liq qodir emaslar, ularning shaxsiy fazilatlarini jamiyat talablariga va ish beruvchilarning talablariga javob bermaydi [12].

Shunday qilib, Oliy o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish muammosi quyidagi qarama-qarshiliklar bilan dolzarbdir:

- Zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyatga tayyor bo'lgan universitetlarning malakali bitiruvchilariga jamiyatning yuqori ehtiyoji va bitiruvchilarining malakasini oshirishga qaratilgan qo'shimcha o'quv dasturlarining yetishmasligi;

- Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining malakasi holatiga ijtimoiy-madaniy va siyosiy vaziyatning talablari va universitetlarning ushbu muammoga yetarlicha e'tibor bermasligi;

- Talabalarda ijtimoiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha Oliy o'quv yurtlarda to'plangan tajriba va uning ilmiy - uslubiy asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va ular o'rtasidagi ziddiyat.

- Talabalarni ilmiy-uslubiy ishlarga jalb qilishning chora tadbirlari ishlab chiqilmagan.

**Muammoning ilmiy rivojlanish darajasi.** Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "kompetentlik" tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab ilmiy nashrlarda uchraydi. Ushbu davrda ijtimoiy kompetentsiya insonning individual xususiyati sifatida tushuniladi, uni shaxs sifatida tavsiflaydi va inson hayotining barcha ijtimoiy sohalarida talabgorga aylanadi. Ushbu davrda quyidagi kontseptsiya fanlararo mavzu sifatida qaraladi va ushbu hodisaning murakkabligi, ko'p komponentligi va ko'p qirraliligini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning falsafiy, ijtimoiy-antropologik masalalari A.Begmatov, A.Mavrulov, G.Tulenova, J.Tulenov, M.Kahharova, E.Yusupov va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan. Talaba-yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik masalalari yuzasidan B.Adizov, B.Raximov, G.J.Tulenovalar, D.Ro'zieva, D.Sharipova, Z.Ismailova, Q.Q.Quranboev, M.Quronov, M.Maxmudova, N.A.Muslimov, N.Ortiqov, N.Egamberdieva, O.Jamoldinova, O.Musurmonova, R.Djuraev, O'.Q.Tolipov, U.Mahkamov, X.I.Ibragimov, Sh.Mardonov, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Ushbu tendentsiyani MDX mamkakatlarining ilmiy ishlarda ham ko'rish mumkin.

Xususan, B.V.Avvo, I.G.Agapov, V.A.Adolf, I.G.Arkipov, N.A.Axtamzyan, V.V.Kraevskiy, L.A.Petrovskiy, N.Y.Tairova, A.V.Xutorskiylarning tadqiqotlarida ta'lim va tarbiya sohasida umumiy madaniy va kasbiy kompetentlikni shakllantirish, yosh mutaxassislarni qayta tayyorlash jarayoni ko'rib chiqiladi.

Yosh mutaxassislarning ijtimoiy va kasbiy kompetentligining mohiyati va tuzilishini tushunishga umumiy nazariy yondashuvlar V.M.Basova, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, R.X.Tugusheva, I.L.Fedotenko asarlarida bayon etilgan.

Talabalarining ijtimoiy va kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, uning mohiyati, mazmuni va tuzilishi masalari bo'yicha esa S.S.Baxteeva, S.Z.Goncharova, A.A.Demchuk, N.V.Lyaxovalar ishlarida ko'rsa bo'ladi.

Kompetentlikga asoslangan yondashuv va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish muammolari M.A.Bondareva, O.Y.Jidkix, M.S.Jirova, A.V.Mamatova, Y.M.Melnik, A.N.Nemtseva, P.R.Noskov asarlarida o'z aksini topgan.

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda ta'lim muassasasining va axborot tizimining roli asosida quyidagi olimlar: N.V.Kozlova, I.S.Konstantinova, N.I.Mamontova, S.A.Ostrikova, T.V.Nikulina, A.P.Peresyapkinalar o'z tadqiqotlarini olib borganlar.

E.M.Avraamova, A.L.Andreeva, V.I.Baydenko, O.M.Bobienko, I.V.Vasenina, I.N.Emelyanova, E.L.Omelchenko, N.A.Oparinalarning asarlarida ijtimoiy va kasbiy vazifalar esa oliy ta'lim muassasalarining ko'plab bitiruvchilarining qaror qabul qilishga tayyor emasligi sababli oliy o'quv yurtlarida talabalarining ijtimoiy va kasbiy mahoratini rivojlantirish yo'llarini izlash zarurligini ko'rsatadi. Talabalarining ijtimoiy shaxsiy kompetentsiyalari va kasbiy kompetentsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar



Y.V.Axmetshina, E.A.Vojlokova, M.V.Kormiltseva, E.M.Sartakovalar tomonidan olib borilgan.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning ayrim jihatlari E.N.Borisenko, D.E.Egorova, S.N.Krasnokutskaya, A.V.Spirina, A.O.Tverduxovlarning dissertatsiya tadqiqotlarida to'liq yoritilgan.

Binobarin, ilmiy adabiyotlarda talabalarning ijtimoiy va kasbiy mahoratini shakllantirish muammolari keng yoritilgan bo'lib, biroq aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda, hozirgi zamonaviy mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni va oliy o'quv yurtlarida talabalar o'rtasida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarni faollashtirish talab etiladi.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish va ushbu jarayonni ilmiy-uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni izlash zarurligidadir.

Tadqiqot ob'ekti - talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish.

Tadqiqot predmeti - talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqotning maqsadi - talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishda pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va o'qitishning metodik tizimini mazmunan rivojlantirish modelini ishlab chiqishdir.

**Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning nazariy asoslarini ochib berish;

- talabalarining ijtimoiy va kasbiy mahoratini shakllantirish muammolarini aniqlash;

- talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish;

- talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishda tashkiliy-funksional didaktik tizim modeliga asoslangan metodik modelini ishlab chiqish;

- talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishda ijtimoiy – kasbiy kompetentlik darajasini baholash mezonlari, tuzilmasi va metodlari asosida aniqlash, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari - tizimli yondashuvdir** (V.G.Afanasyev, V.N.Sadovskiy, A.I.Subetto); shaxs-faoliyat yondashuvi (M.S.Kagan, A.N.Leontiev, D.B.Elkonin); ta’limdagi shaxsiy va faoliyat yondashuvi (A.L.Andreev, E.V.Bondarevskaya, N.F.Talizina); kompetentsiyaga asoslangan yondashuv (V.I.Baydenko, I.A.Zimnaya), ijtimoiy va kasbiy kompetentsiyani shakllantirish bo’yicha zamonaviy tadqiqotlar (V.M.Basova, N.N.Ushakova).

**Tadqiqot usullari:** maxsus va ilmiy adabiyotlarni nazariy o’rganish va tahlil qilish, hujjatlarni tahlil qilish, ekspert so’rovi, so’rovnomalar, empirik ma’lumotlarni talqin qilish va tahlil qilishning statistik usullari (tavsiflovchi statistika, korrelyatsion tahlil).

**Tadqiqotning empirik bazasi** mintaqaviy darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar, mualliflik tadqiqotlar natijalari;

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati** talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish yo’nalishlari va shartlarini ko’rib chiqish, “talabalarning ijtimoiy kompetentligi” tushunchasiga mualliflik ta’rifini shakllantirishdan iborat.

## **I. TALABALARNING IJTIMOIIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK TA’MINOTI.**

### **1.1. Ijtimoiy kompetentlik: mohiyati, tuzilishi, funktsiyalari.**

Ijtimoiy kompetentlik masalasi umumiy va xususiy xarakterga ega bo’lgan bir qator tushunchalar orqali dolzarbdir. Ijtimoiy muxit ta’sirining ortishi bilan ta’lim olishning va yosh mutaxassislarni tayyorlashning ahamiyati ham oshib boradi. Respublikamizda ta’lim siyosati nafaqat milliy manfaatlarni, balki ta’lim tizimiga ta’sir ko’rsatadigan global rivojlanishning umumiy tendentsiyalarini ham hisobga oladi, xususan:

- talabalarning siyosiy va ijtimoiy tanlov imkoniyatlarini kengaytirish, bu yoshlarning ushbu tanlovga tayyorligini oshirish zarurligini taqozo etadi;

- talabalarning o‘zaro munosabatlarini amaliyot orqali kengaytirish va shu bilan barcha aholi, xususan, yosh mutaxassislar orasida muloqot va bag‘rikenglik omillari alohida ahamiyatga ega;

- Evropa mamlakatlarida millat boyligining 70-80 foiziga yetadigan inson va ijtimoiy kapitalning ahamiyati ortib bormoqda, bu esa o‘z navbatida zamonaviy talabalardan sifatli ta‘lim olishni dolzarbligini oshiradi [26, 18].

Ushbu tadqiqotning vazifalaridan biri “kompetentsiya”, “kompetentlik” va “ijtimoiy kompetentlik” boshlang‘ich ta’riflarining mohiyatini aniqlashdir. Kompetentlik lotin atamasida “raqobat”, “bilish”, “anglash”, “erishish”, “moslashish” degan ma’noni anglatadi.

Oliy ta‘lim tizimida kompetentlik ta‘lim tizimining akademik va kasbiy profillari va darajalarini tavsiflash uchun yagona (izchil) til sifatida tushuniladi [5, 11]. Ushbu matnda “kompetentlik” tushunchasi xabardorlik (bilim, savodxonlik, xabardorlik), tayyorgarlik (tayyor bo‘lish), tayyorlik, ma’suliyat, malakali, professional kabi tushunchalar bilan sinonimdir.

Ushbu tushunchalarning mohiyati haqidagi savolga tadqiqotchilar qarashlarining noaniqligini ta’kidlash kerak. Ilmiy muomalaga “kompetentlik” tushunchasining kiritilishi N.Xomskiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u 1965 yilda tillarni o‘qitish nazariyasi, nutq aloqasi va transformatsion grammatikaga nisbatan “kompetentlik” atamasini taklif qilgan [33, 41].

Zamonaviy tadqiqotchilarning muhim qismi “kompetentlik” tushunchasini qobiliyat, ma’lum bir faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bilan bog‘laydi.

A.A.Verbitskiy kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari o‘rtasidagi farqlar quyidagilardan iborat deb hisoblaydi: kompetentsiya – xabardorlik, ma’suliyat; boshqaruv, bilim, tajriba, xukmronlik doirasiga ega bo‘lgan masalalar, hodisalar [15, 23]. A.A.Verbitskiyning nuqtai nazari bilan o‘rtoqlashar ekanmiz, biz kompetentsiyani yosh mutaxassisning biror narsada xabardorligi, kompetentlik esa

ma'lum bir sohadagi mutaxassisning bilimidir, deb tushunish kerak deb hisoblaymiz.

Kompetentlik tushunchasi, qoida tariqasida, shaxsga qaratilgan tushuncha sifatida ishlatiladi:

- yosh mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorligi, ijtimoiy texnologiyalar va kasbiy faoliyat vositalariga aniq egalik qilish, tashkilot tomonidan qo'yilgan vazifalarni hal qilish qobiliyatida ifodalangan ta'lim natijasi;

- atrofdagi odamlarni o'zgartirish, maqsadlarini belgilash va ularga erishishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va tajribalarni birlashtirish shakllarining o'ziga xosligi;

- kasbiy faoliyatni amalga oshirishni va ma'lum natijalarga erishishni ta'minlaydigan xususiyatlar (motivlar, e'tiqodlar, munosabat) to'plami;

- mutaxassisning kasbiy faoliyati natijalarining rahbariyat yoki butun jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

Kompetentlik tushunchasining barcha taqdim etilgan talqinlari orasida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin:

- shaxs juda yaxshi biladigan mavzu sohasi;

- shaxs faoliyatining xususiyatlari, ya'ni, berilgan vazifalar va hal qilinadigan muammolarning mohiyatini aniq tushunish; muayyan sharoitlarda va muayyan vaziyatda zarur bo'lgan harakat vositalari va usullarini tanlash qobiliyati, erishilgan natijalar uchun javobgarlik hissi; xatolardan saboq olish va maqsadlarni belgilash jarayoniga tuzatishlar kiritish qobiliyati;

- shaxsning asosiy xarakteristikasi, shaxsning chuqur va barqaror qismi bo'lib, u orqali turli xil hayotiy va kasbiy vaziyatlarda odamning xatti-harakatlarini bashorat qilish mumkin;

- bitiruvchini tayyorlash sifatining yaxlit tavsifi, ta'lim natijalari toifasi;

- ideal va me'yoriy xususiyat, ma'lum bir oldindan belgilangan bilim sohasi, unda bitta kasb bilan birlashtirilgan odamlar xabardor bo'lishi kerak.

Kompetentlikning muhim belgilari quyidagi mezonlarning kombinatsiyasi bilan belgilanadigan darajani o'z ichiga oladi:

- bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi (bilim va ko‘nikmalar sifati);
- bilim va ko‘nikmalarning diapazoni va kengligi;
- maxsus vazifalarni bajarish qobiliyati;
- o‘z ishini oqilona tashkil etish va rejalashtirish qobiliyati;
- nostandart vaziyatlarda bilimlardan foydalanish qobiliyati texnika, texnologiya, tashkilot va mehnat sharoitlari o‘zgarganda tezda moslashishdir [7, 16].

Demak, kompetentlik - bu berilgan vakolat doirasida maqsadlarga erishish uchun shaxsning bilimlari, qobiliyatlari va sub'ektiv xususiyatlarining maqsadli o‘zaro ta’siri jarayoni bo‘lib, u kompetentsiya tomonidan belgilangan maqsadlar bilan birgalikda belgilanadi.

*Xulosa qilish mumkinki*, kompetentlik va kompetentsiya bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va kompetentlik darajasi (malaka) uning vakolat talablariga javob berishiga bog‘liq. Kompetentsiya vazifa menejeri, ish beruvchi, rahbar tomonidan belgilanadi va kompetentlik o‘quv jarayonida shakllanadi va kasbiy faoliyatda amalga oshiriladi.

XX - asrning 90-yillarida ijtimoiy kompetentlik deganda shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi va inson hayotining barcha ijtimoiy sohalarida talabga ega bo‘lgan shaxsning individual sifati tushuniladi. Ushbu davrda ushbu kontseptsiya fanlararo mavzu sifatida qaraladi va ushbu hodisaning murakkabligi, ko‘pkomponentligi va ko‘p qirraliligini hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi. Ushbu tendentsiyani bugungi kunda zamonaviy ilmiy ishlarda ham ko‘rish mumkin.

Masalan, V.N.Kunitsin asarlarida ijtimoiy kompetentlikning og‘zaki, kommunikativ, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy funktsiyalari keltirilgan [44, 38].

I.A.Zimnaya ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning kompetentliklarini tahlil qildi – jamiyat, oila, do‘stlar va boshqalar bilan; aloqa sohasidagi kompetentsiyalar-alloqa, shaxsiy va ishbilarmonlik sifatida yondashildi [30, 13].

E.V.Koblyanskaya ijtimoiy kompetentlik “me” va “jamiyat” pozitsiyalari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati sifatida taqdim etilgan. Ijtimoiy

kompetentlik to'g'ri ijtimoiy ko'rsatmalarni tanlash ko'nikmalarini, tanlangan ijtimoiy ko'rsatmalarga muvofiq ijtimoiy va kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan hodisa insonning mehnat faoliyatidagi sifatini anglatadi. Jamiyat a'zosi sifatida, shaxs jamiyat a'zolarining hayoti va kasbiy o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi umumiy qabul qilingan ijtimoiy normalar bilan bog'liq [36].

E.V.Kamenskaya ijtimoiy kompetentlikning shakllanishini psixologiya nuqtai nazaridan turli yosh bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning ruhiy salomatligini mustahkamlash omili sifatida ko'rib chiqadi. Olim shunday yozadi: "ijtimoiy kompetentlik insonning samarali ijtimoiy faoliyati uchun zarur bo'lgan xususiyat sifatida uning jamiyatda moslashishini ta'minlaydi va insonning o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi baholashiga yordam beradi" [33, 32]. E.V.Kamenskayaning so'zlariga ko'ra, shaxsning ijtimoiy kompetentligi muhim psixologik sifat bo'lib, shaxsga yosh inqirozlari, masalan, yoshlik muammolarini yengil, ammo konstruktiv (quruvchi) ravishda hal qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy kompetentlik davlat va jamiyatning ijtimoiy tartibi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni talabalar faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichi deb atashga imkon beradi [33, 33].

M.I.Lukyanovanning asarlarida ijtimoiy kompetentlikni shaxsiy shakllanish sifatida tushunish, uning ongli harakatlarining namoyon bo'lishi, shuningdek, jamoa, jamiyat bilan konstruktiv o'zaro munosabatlarga aniq e'tiqodlar, qarashlar, motivlar, munosabat kuzatilishi mumkin [47]. Shunday qilib, ma'lum bir jamiyat normalarini qabul qilish ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish uchun asos bo'ladi; o'ziga xos bilim, ko'nikmalarni kengaytirish, jamiyatga moslashishga erishish ko'nikmalarini egallash; o'z harakatlarini anglash va belgilangan vazifalarga erishishda o'z qobiliyatlarini yetarli darajada baholash, muayyan muammoni hal qilishda shaxsiy salohiyatni yangilash qobiliyati; tashkilotning eng samarali usullarini va maqbul xatti-harakatlarni tanlash; o'z xatti-harakati uchun o'zi, oilasi, jamoasi, jamiyati oldida javobgarlik.

V.Sh.Maslennikovaning asarlarida ijtimoiy kompetentlik va ijtimoiy voqelikni qadriyat tushunchasi o'rtasidagi bog'liqlik mavjud. Olimning ko'rib chiqilayotgan kontseptsianing toifasini insonning o'ziga xos ijtimoiy bilimlari va inson hayotining turli sohalarida ijtimoiy texnologiyalarni tanlash va qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy kompetentlik tarkibiga individual-shaxsiy (insonning ma'naviy hayoti, qadriyatlar ierarxiyasi, turli vaziyatlarda tanlov qilish qobiliyati), sotsiologik (ijtimoiy normalarga muvofiq ijtimoiy institutlar tizimida insonning ishlash qobiliyati) va hayotiy (hayot istiqbollari aniqlash) tarkibiy qismlar kiradi.

V.M.Basovning so'zlariga ko'ra - ijtimoiy kompetentlik deganda quyidagilar tushuniladi; ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning ijtimoiy tajribasi, shaxsga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi va o'z resurslarini faollashtirishiga qaratilgan tushunchalar tushuniladi. Shaxs tabiiy ravishda mavjud ijtimoiy voqelik to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, shuningdek, yangiliklarga tayyor bo'lish, jamoa bilan muloqot qila olish va har qanday qarorlar uchun belgilangan ijtimoiy me'yorlarga muvofiq hayotiy vaziyatlarga javobgar bo'lishi kerak.

Ijtimoiy kompetentsiya tarkibi (T.G.Pushkarevaning so'zlariga ko'ra) quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- 1) maqsadni belgilash.
- 2) boshqalarga yo'naltirish.
- 3) ijtimoiy harakatchanlik va inson faoliyati.

Shunday qilib, taqdim etilgan ta'riflar uni umume'tirof etilgan ijtimoiy me'yorlarni hisobga olgan holda har qanday vazifalarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyati (sifati) sifatida tushunishni birlashtiradi. Ya'ni, ijtimoiy kompetentsiya - bu eng katta natijalarga erishish kerak bo'lgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun shaxs uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar tizimi. [24, 10].

Shunday qilib, tahlil ijtimoiy kompetentlikning mohiyatini tushunishga turli xil yondashuvlar to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi:

- ijtimoiy kompetentlik shaxsning integral sifati yoki ijtimoiy o‘zaro ta’sir sifatida taqdim etiladi;
- ijtimoiy kompetentlik ma’lum bir faoliyat natijasida yoki shaxsning ma’lum bir faoliyat turidagi yutuqlarining ko‘rsatkichi sifatida tavsiflanadi;
- ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning tarkibiy qismi insonning yoshiga bog‘liq. Turli yosh davrlarida ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni turli xil va o‘xshash tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan umumiy va maxsus xususiyatlarga ega.

Shakllangan ijtimoiy kompetentlik har qanday o‘quv dasturining maqsadi, ijtimoiylashuvning asosidir. Ijtimoiy kompetentlik shaxsga kundalik vaziyatni tahlil qilish, uning rivojlanishini bashorat qilish, boshqa odamlarning turli xil xatti-harakatlarini rejalashtirish, to‘plangan va qayta ishlangan ijtimoiy ma’lumotlar asosida hamkorlik qilish, mustaqil va mas’uliyatli harakat qilish qobiliyatini beradi. Ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni zamonaviy insonning haqiqiy hayoti sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak, chunki bugungi kunda inson keng ijtimoiy munosabatlar va aloqalarga ega, murakkab ijtimoiy harakatlarni amalga oshiradi, ular o‘sib-ulg‘ayish davrida shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi kerak.

Aytish mumkinki, ijtimoiy kompetentlik – bu shaxsning samarali shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarga kirishish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, baholash, noaniqlik sharoitida o‘z manfaatlari, maqsadlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish qobiliyatini aks ettiruvchi integral xususiyatdir bo‘lib, va u joylashgan jamiyatning me’yorlari, qadriyatlariga zid bo‘lmasligi lozim.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, *“ijtimoiy kompetentlik”* tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan shaxsni ijtimoiylashtirish jarayonining ajralmas qismi, shaxsiy xususiyati sifatida qaraladi, chunki u shaxsga ijtimoiy rollarning o‘zgarishini engishga yordam beradi, hamkorlik qilish, aloqada bo‘lish qobiliyatini va o‘zgarishga tayyorlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z harakatlarining oqibatlari uchun ijtimoiy javobgarlikni ham o‘z ichiga oladi.



Ijtimoiy jarayonlardagi vaziyatlarni tushunish va ijtimoiy rollarni o'zlashtirish insonning ijtimoiy kompetentsiyasini oshiradi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olishga yordam beradi.

Kompetentlik - biz yosh mutaxassisning biror narsadan xabardorligi, kompetensiya esa ma'lum bir sohadagi mutaxassisning bilimini anglatishini tushunamiz.


Kompetentlik tushunchasi, qoida tariqasida, quyidagilarni belgilash uchun ishlatiladi: yosh mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorligi, ijtimoiy texnologiyalar va kasbiy faoliyat vositalariga aniq egalik qilish, rahbariyat tomonidan qo'yilgan vazifalarni hal qilish qobiliyati ifodalangan ta'lim natijasi; atrofdagi dunyoni o'zgartirish, maqsadlarini belgilash va ularga erishishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalarni birlashtirish shakllarining o'ziga xosligi; kasbiy faoliyatni amalga oshirishni va ma'lum natijalarga erishishni ta'minlaydigan xususiyatlar (motivlar, e'tiqodlar, munosabat) to'plami; mutaxassisning kasbiy faoliyati natijalarining rahbariyat yoki butun jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

Ijtimoiy kompetentlik-bu insonning individual fazilatlarining murakkab dinamik integral tizimi bo'lib, uning umumiy qabul qilingan ijtimoiy normalar va qoidalar, qadriyatlar, shuningdek jamiyat pozitsiyalarini hisobga olgan holda jamiyatda harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydi. Talaba ijtimoiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, turli vaziyatlarda qaror qabul qilish tajribasiga ega bo'lishi, shuningdek, jamoa, yaqin atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishga tayyor bo'lishi kerak.

Talabalarning ijtimoiy voqelik haqida xabardorligi, etakchilik-liderlikga tayyorligi va boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati, ta'lim jarayonida mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, soxasining muayyan me'yoriy talablariga muvofiqligi, innovatsion ta'lim texnologiyalarini bilish qobiliyati, ijtimoiy faollikning muhim usullariga ega bo'lish. O'z imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalana olishi va ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion hamkorlikka erishish: "Ekzistensial motivlar" asosida ichki erkin harakatni amalga oshirish. Yuqorida

olimlarning fikrlarini taxlil qilish asosida biz talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish tushunchasiga o'zimizning mualliflik tarifi keltirdik.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari (“Ta’lim jarayonini boshqarish” va “Suv xo’jaligi va melioratsiya”)ni o’qitishda SWOT tahlil, Ekzistensial yondashuv asosida GROW metodikasi taklif etilayotgan ushbu metodikada talabalarning ijtimoiylashuvida maqsad, Real holat, imkoniyatlar, ko'zlangan natija va qanday harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan 4 ta asosiy; Goal, Reality, Options, Will olib boriladigan hamkorlik natijalarining tahlili amalga oshirilish va rivojlanishiga asos sifatida xizmat qiladi (1-rasmga qarang).




**1-rasm. GROW metodikasi asosida ijtimoiy kompetentlik tuzilmasi.**

Shunday qilib, talabani ijtimoiy kompetentligi - bu uning ajralmas ijtimoiy sifati bo'lib, buning tarkibiga ijtimoiy voqelikni aniq qadriyat tushunchasi, ijtimoiy bilim va harakat uchun qo'llanma, o'z ma'sulligini o'zi anglash, o'zini o'zi boshqarish va ma'lum bir me'yorni yaratish uchun sub'ektiv qobiliyat sifatida kiradi; hayotning asosiy sohalarida (ta'lim muassasalar, me'yorlar va munosabatlar tizimida) ijtimoiy texnologiyalarni, madaniyat, axloq va huquq darajasi kiradi. [24]

Shunday ekan, shaxs ijtimoiy faolligi rivojlanishida uning individualligida namoyon bo'lib, talabalarida ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy-siyosiy, mehnat,

bilish jarayonlari, kundalik turmush tarzi, muayyan bilimlar hajmi va jamiyatdagi axloq me'yorlarini o'zlashtirishi orqali rivojlantirilib borilishining pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. (2-rasm)



**2-rasm. Talabalar ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart - sharoitlari**

Tadqiqot natijalari talabalarning ijtimoiy faolligi axloqiy tarbiya, ijtimoiy-pedagogik faoliyat va ma'naviy madaniyatning uyg'unligi asosida takomillashtirishni taqozo etishi haqidagi xulosaga kelish imkonini berdi. Talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda quyidagi komponentlarga asoslanish zarurligi bob mazmuniga singdirildi: o'z-o'zini anglashning yuksak darajasi; fuqarolik, o'z qadr-qimmatini his qilish, o'zini hurmat qilish, intizomlilik, to'g'rilik; ma'naviy qadriyatlarga e'tiborlilik; qarorlar qabul qilishda mustaqillik va ma'suliyatni his

qilish; hayotiy faoliyat mazmunini erkin tanlash; mehribonlik, yaxshilik; alturizm, sabrlilik, chidamlilik, kamtarlik; osoyishtalik, yaxshi qo'shnichilik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tushunishga intilish; bilish va o'z-o'zini anglash, go'zallik, refleksiya, muloqot va hayot mazmunini chuqur tushunishga ehtiyoj; ichki dunyo avtonomiyasi, yaxlitlik; rivojlangan qobiliyatlar; faoliyat o'zgartiruvchi ilmiy bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, intellekt, institutsiya, ijodiy hayotga ehtiyoj; iqtisodiyot asoslarini bilish; mehnatsevarlik, tejamkorlik; chet tillarni o'rganish; milliy va diniy urf-odatlarini bilish; sog'lom turmush tarzi; jismoniy toblanish; estetik did, yaxshi amallar; ozodalik, atrof-muhitni obodonlashtirish va oila farovonligini ta'minlash; eruditsiya, kompetentlilik; tadbirkorlik, raqobatbardoshlilik, boshqarish qobiliyati; kirishimlilik; ijodiy professional fikrlash qobiliyati, tarixni, turli xalqlar madaniyatini bilish va hokazo.

## **1.2. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirish shartlari**

Bu eng avvalo an'anaviy yondashuvga qaraganda yaxshiroq ijtimoiy savodxonlikni shakllantirish, muloqot qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirish, hayotiy va kasbiy tanlovini o'zi belgilashni va o'zini o'zi qayta qurishni o'rganishiga turtki bo'ladi. Ikkinchidan, bu uning muvaffaqiyatining bir qator tashkiliy va pedagogik shartlariga rioya qilishni o'z ichiga oladi: ta'lim hamjamiyatining mavjudligi va shaxsning kasbiy faoliyatli turini erkin tanlashi uchun sharoit; shaxsning xavfsizligini, uning suverenitetining xavfsizligini ta'minlash, faollikni rag'batlantirish; mahalliy pedagogik texnologiya va aks ettirish sifatida moderatsiyadan foydalangan holda ta'lim muhitida pedagoglarni oldindan tayyorlash.

Shunday qilib, inson diqqat markazida bo'lgan *ekzistensial* yondashuv, uning hayot mazmuniga, tashqi dunyoga munosabati, o'z hayot yo'lini tanlash uchun javobgarligi va tarbiya unga voqea orqali o'zining asl mohiyatini topishga yordam berish sifatida qaraladi, erkin tanlov, shaxsiylashtirilgan makonning mavjudligi, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini himoya qilish, o'zini namoyon qilish istagi, pedagogik qo'llab-quvvatlash, ta'limning barcha darajalarida ijtimoiy vakolatli shaxsni tarbiyalash samaradorligini ta'minlashga imkon beradi.

Ekzistensial yondashuv bugungi kunda muhim ahamiyatga ega, chunki u fikrleydigan inson uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega: erkinlik va mas'uliyat, vijdon, qaror va tanlov, hayotining "ijtimoiyligi", insonning maqsadi va uning kasbiga munosabati. O'ziga xoslik va muximlik masalalari; ichki dunyo va tashqi ijtimoiy muhit o'rtasidagi qarama-qarshiliklar; insonni begonalashtirish, yolg'izlik, "tarki dunyo"; ichki mavjudlik va erkinlik; ijodkorlik; o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatlari va usullari - ularning kelib chiqishi ekzistensial yondasuvlarda o'rganiladi. Bugungi kunda ekzistensial yondashuv metodika sifatida o'rganilmagan bo'lishiga qaramay, falsafa, psixologiya, pedagogika va fanlararo tadqiqotlarning tadqiqot masalalarida o'z pozitsiyalarini mustahkam egallab kelmoqda. Jamoatchilikning ijtimoiylashuv g'oyalari - intellektual rivojlanish, ijtimoiy hissiy qiziqish tajribalarda o'z o'rnini egalladi.

Bugungi kunga kelib o'ziga xoslik va o'zini ifoda etish erkinligining namoyon bo'lishi ta'lim tizimida ta'limning hal qiluvchi printsiplari - shaxsni tarbiyalashda muxim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Jamoada jamiyat maqsadlariga muvofiq maxsus tarbiya tizimini qurish zarurligini tan olingan davrda - ekzistensial yondashuv o'rganila boshlandi.

Shaxsning o'zini takomillashtirishga bo'lgan intilishlari individual nuqtai nazardan o'rganilgan, ammo ijtimoiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilmagan. Bugungi kunda samarali g'oyalarni birlashtirgan zamonaviy tadqiqotlar - jamoatchilik mafkuralari va individuallikning ekzistensial g'oyalari tobora ekzistensial nazariyaning uslubiy asosi sifatida xizmat qilmoqda. Ekzistensial yondashuv - pedagogik g'oyalar hayotning muhim qadriyatlari, insonning ahamiyati va uning o'z o'zini namoyon etishi, inson hayotidagi ekzistensial hodisa sifatida ta'limning ma'nosi va uning tushunchalarini rivojlantiradi va murakkablashtiradi.

Zamonaviy ta'limning ekzistensial muammolariga murojaat qilish XX oxiridagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq – 21-asr boshlari ta'lim muammolari, shaxsiy o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini namoyon etish, va shu bilan, antropotsentrizm bilan bog'liq bo'lib, tanlash, erkinlik va mas'uliyat, ijodkorlik, ijtimoiylik, muxabbat insonning o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Fikrlaydigan xar bir inson tomonidan qoralangan ta'limning ekzistensial mohiyatini o'rganish, reflekslashgan ekzistensial yo'nalish, sof antropotsentrik yo'nalish g'oyalarni amalga oshiradi. Inson faqat hamma narsani hal qilganda, o'zini shaxs sifatida namoyon qila oladi, har doim o'z qarorlarida u faqat "ekzistensial motivlari" asosida ichki erkin harakatini amalga oshiradi. "Insonning ijtimoiylashuvi – uning o'zi hal qiladi" – ekzistensial yondashuvning asosiy uslubi xisoblanadi. Inson muammolarini anglashi kuchayishi bilan quyidagilar kuzatiladi; ularning echimi topiladi, hayotdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda cheklov qaror topadi. Va bu ekzistensial yondashuv vazifasini bajaradi, uslubiy jihatdan javob berish uchun asosli yondashuv ta'limning muhim qadriyatlari, insonning ta'lim jarayonida amalga oshirish imkoniyatlari, borliqning antropologik tuzilishi sifatida shakllanishining chuqur ma'nosi - ta'lim haqidagi savollar. Yani, bilamizki

bola tugʻilgan davridan boshlab, unga berilgan feʼl-atvorini namoyon qilish bilan bir qatorda oʻz qobiliyatlarini ham amalda koʻrsata boshlaydi. Demak, insonda oʻqib oʻrganmasdan turib baʼzi bir vaziyatlarda oʻquvi boʻlar ekan. Taʼlim olishi bilan negadur shu qobiliyatlar oʻz oʻzidan yoʻqolib ketadi, bolani qayta kashf etish esa “pedagog” larning muxim vazifasiga aylanadi.

Jamiyatning siyosiy mafkurasiga qatʼiy rioya qilish sharoitida ekzistensial yondashuvni 1981 yillarda "oʻz" erkinligi va tanlovi bilan pedagogika fanining falsafiy-metodik asosi sifatida qatʼiyan koʻrib chiqish mumkin emasligi taqiqlangan edi. Ekzistensial yondashuv nazariyotchilari taʼlimda rivojlanish aqliy emas, balki hissiy jihatdan muhim deb hisoblashadi. Jahon ilm-fan taraqqiyotiga koʻra intellektual rivojlanishning hissiy jihatdan qarama-qarshiligi nafaqat ziddir, balki ayni paytda sogʻlom maʼnoda... xam qoʻllash mumkin. [35].

Tajriba ishimiz jarayonida talabalarning ekzistensial yoʻnaltirilgan shaxsini shakllantirish koʻplab omillar taʼsiri ostida ekanligi aniqlandi. Ular talabaning ijtimoiylashuviga yoki aksincha, “desotsializatsiy”asiga yaʼni ijtimoiylashmaslikga hissa qoʻshishi mumkin, bu oxir-oqibat shaxsning rivojlanishi va shakllanishi istiqbolini va uning jamiyatdagi keyingi hayotiy faoliyatini belgilaydi. Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtda talaba shaxsiyatining ijobiy rivojlanishini professional qoʻllab-quvvatlash, uning oʻzini oʻzi boshqarish va oʻzini oʻzi tarbiyalash qobiliyatini rivojlantirish muammosi dolzarbdir.

Talabalarning ekzistensial yoʻnalishini shakllantirish boʻyicha tajriba sinov ishi natijalari quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Talabalarning “ekzistensial yoʻnalish” asosida ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishga yordam beradigan tashkiliy va pedagogik sharoitlarni yaratish va talabalarning shaxsini oʻz-oʻzini anglash bilan bogʻliq muammolarni aniqlash uchun tizim, oʻqituvchilar faoliyatining umumiy yoʻnalishi zarur. Shuning uchun, birinchi navbatda, umuman oʻqituvchilar jamoasi faoliyatining yoʻnalishini belgilaydigan taxsis oʻtkazish maqsadga muvofiqdir.

Uning maqsadi taʼlimni insonparvarlashtirish va kasbiy qiyinchiliklar toʻgʻrisidagi mavjud bilimlarni aniqlash, keyinchalik taʼlimning uslubiy ishlarini

qayta tashkil etishni boshlashdir. Biz o‘tkazgan so‘rovnomalar va taxlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar turli sabablarga ko‘ra ijtimoiylashish va innivatsion hamkorlik to‘g‘risida yetarli ma‘lumotga ega emaslar. O‘qituvchilarning katta qismi zamonaviy ta‘limda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga e‘tibor qaratmaydi. Bu uslubiy ishlarni qayta tashkil etishning ustuvorligini tasdiqladi, chunki, bu ta‘limni boshqarishning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, birinchi navbatda talabalarning ijtimoiylashuvini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quv jarayonining aniq natijalarida aks etadi.

Shu bilan birga, talabalar o‘zlarini anglash orqali amalga oshiriladigan "o‘zlik", o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishda inson o‘zi tanlaydi va o‘zi javob beradi; yani har bir inson muloqot orqali muayyan pozitsiyani egallash qarorini o‘zi xal qiladi. Ekzistensial yo‘nalish "mas‘uliyatli", "majburiy", "boshqacha qila olmayman" kabi tushunchalarni tavsiflaydi. Shuni ta‘kidlash joizki, ko‘plab tadqiqotchilarning ishlari yigirmanchi yillar oxirida, yigirma birinchi asr boshlarida ekzistensializm o‘z mohiyatiga ko‘ra bir qator g‘oyalarni aks ettirdi.

Ekzistensial yo‘nalishning asosiy g‘oyasi ideal maqsadning sifati-bu eng maqbul odamni shakllantirish, o‘z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish va amalga oshirish orqali hayotingini ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatda yashab o‘tish. Ushbu maqsadni amalga oshirish esa, faqat talabaning hayotiga pedagogik ta‘sir orqali, ya‘ni quyidagi muhim voqealardan iborat.

Ekzistensial yo‘nalish - uning asosiy tushunchasi “jarayonda yashash”, yani voqelik bilan hisoblashish, bu ayni paytda mas‘uliytli bo‘lish – ma‘nolarni ham berishi mumkin. Voqelik, hodisa inson hayotining asosiy elementidir. Hodisa – “Men bilan yashash”, ya‘ni, bu muhim hodisa inson uchun, nson hayotini murakkab chiziqlari sifatida tasavvur qilish mumkin, u ikkita ekstremal nuqtalar orasida sodir bo‘ladi: tug‘ilish va o‘lim. Turli xil hissiy rangdagi ko‘plab voqealar insonning xotirasida iz qoldirishi yoki qoldirmasligi mumkin. Masalan, talabada eng chuqur iz qoldirgan xislardan biri, talabaning o‘qishga qabul qilingan damlari. Aynan shu paytda u o‘zini hislari bilan yashab otadi u butun umri davomida eslab qolgan quvonch to‘lqini qamrab oladu. Shuningdek, xafagarchilik, adolatsiz



jazolar, kasalliklar, yaqinlarining o'limi va salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqargan boshqa hodisalar. Uning rivojlanishi uchun u bunga asoslanadi, lekin faqat muhim voqea unga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ekzistensial yo'nalish metodikasining farqi nimada. Birinchidan, har qanday ijtimoiy voqelik ta'siri voqealar ketme-ketligini hisobga olishi kerak – ya'ni ijtimoiy kompetentlik bir qator ta'sir jarayonlarida sodir bo'ladi. Ikkinchidan, talaba va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir tomonlama bo'lishi ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularga sabab bo'ladi

Uchinchidan, o'qituvchining har qanday harakati, agar u talaba uchun voqelik bo'lmasa - bu talabaning faolligi uchun hech qanday natija bermaydi, bilishimiz lozim va tafakkurlar uyg'unlashuvi - pedagogik muammoning echimi hisoblanadi.

## **2.2. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida zamonaviy mutaxassisni tarbiyalashda ta'lim muassasasining ijtimoiy-pedagogik vazifalari**

Yangi ijtimoiy-madaniy sharoitda yashaydigan va kasbiy rivojlanadigan mutaxassis shaxsni tarbiyalash, har doim fan, siyosat va davlat diqqatining ob'ekti bo'lgan va bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy bosqichi tez rivojlanayotgan innovatsion jarayonlar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri ijtimoiy va individual ongning o'zgarishlarga tayyorligi oshadi, unga ishtirok etishda va yangilikni qabul qilishi yanada uning qiymatini osirib boradi. Shunga ko'ra, shaxsning innovatsion rivojlanayotgan jamiyatdagi o'rnini va roliga qarab uning munosabatlari o'zgaradi. Yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy-madaniy paradigma nuqtai nazaridan shaxsiyat faoliyatning turli sohalarida ijodiy transformatsion faoliyatga qodir faol sub'ekt sifatida ko'rib chiqiladi.

Yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda ta'lim yo'nalishining asosiy talablaridan biri - shaxsiy potentsialni rivojlantirishdir, va shu bilan bir qatorda hayotiy xolatni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari yo'naltirilgan. Bunda professional ta'lim jarayoni muhim o'rin tutadi, unda kelajakda mutaxassis, magistr tomonidan tanlanadigan ta'lim muassasasi muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasasi,

bitiruvchini tayyorlashning muhim funksiyasini ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'lim muhitini shakllantirishga qaratadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarda tarbiyaning ahamiyati haqida juda aniq fikrlar bildirilgan bo'lib: "Ta'limsiz tarbiya – bu ruhsiz tana bilan dir xil tushuniladi. Tarbiyasi bo'lmagan o'qituvchilarning yoshlarni tarbiyalashdagi sa'y-harakatlari befoyda. Va hatto eng foydali bilimlar xam odobsiz, axloqsiz odamga ta'sir ko'rasata olmaydi va osongina o'zingizga va atrofingizdagilarga zarar etkazishi mumkin". Agar biz yaxshi mutaxassis, shakllantira olmasak, tarbiyalay olmasak albatta, bizda kelajak bo'lmaydi. Bu – aniq fakt. Bizga maxsus bilimga va ko'nikmalarga ega odamlar kerak. Ammo agar biz gumanitar sohada keng fikrlovchi, keng qamrovli, ob'ektiv bilimlar, o'zini o'zi boshqara oladigan shaxsni tarbiyalay olmasak, siz va men ko'p millatli va ko'p konfessiyali hamjamiyatning bir qismi deb bilgan mamlakatga ega bo'lmaymiz. Bizning oldimizda gumanitar sohada juda muhim vazifa turibdi".

Zamonaviy jamiyatida professional ta'limining funksional maqsadini, uning ta'lim tarkibiy qismini yangicha tushunish yotadi, chunki professional ta'lim ijtimoiy institut sifatida javob beradi, shaxsning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish uchun jamiyatdagi ijtimoiy-pedagogik funksiyalarining mazmuni yangilanishni talab etadi. Yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy-madaniy paradigma nuqtai nazaridan, shaxs qobiliyatli faol sub'ekt sifatida faoliyatning turli sohalarida ijodkorligini namoyon etishga qaratilgan.

Yangi O'zbekiston rivojlanish yo'lida, davlat tomonidan qo'yilgan yangi maqsadlar va vazifalarga ega bo'lgan bugungi oliy ta'lim muassasalar bu yo'nalishda, ya'ni oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy-pedagogik vazifalarini o'zgartirishda va oliy ta'limning professional tizimini jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan eng yaxshi, ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalarni tarqatishda ham etakchi bo'lishga chorlangan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining muxim vazifalari raqobatbardoshlikni oshirish va reindustrializatsiyani ta'minlash, insoniy va ilmiy-texnik potensialni shakllantirish, ta'lim tizimi iqtisodiyotining an'anaviylarini

muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish va postindustrial tarmoqlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda oliy o'quv yurtlari yangi funksiyalarni egallamoqda va mavjud bo'lgan an'anaviy funksiyalarni yangilab bormoqda. Biz zamonaviy pedagogik bilim berishda professional ta'lim tizimining yangi ijtimoiy-pedagogik funksiyasini anglashimiz zarur. Bugungi O'zbekiston jamiyatida professional ta'limning roli va ahamiyatini jiddiy yangilanishiga olib keladi. Bu O'zbekistonning jahon iqtisodiy va ta'limiy hamjamiyatiga integratsiyalanish shartlari bilan kuchayadi.

Oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy-pedagogik funksiyasi – jamiyatda oliy o'quv yurtining rolini tubdan o'zgartirishdan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillarining ta'siri bilan shartlangan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida zamonaviy mutaxassisni tarbiyalashdan iborat.

Oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy raqobatbardosh mutaxassisni tarbiyalash funksiyasi nuqtai nazaridan qayta anglash esa fanlararo yondashuv pozitsiyasi bilangina mumkin bo'ladi, bu talaba yoshlarni tarbiyalash to'g'risidagi konseptual tasavvurlarni rivojlantirish va yangilash maqsadida pedagogika va boshqa fan tarmoqlari o'rtasida izchil aloqa o'rnatish zaruriyatini asoslaydi.

Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlari tomonidan ijtimoiy-pedagogik funksiyani amalga oshirishlari davomida davlat, jamiyat, ish beruvchilar va o'quv muassasalarining uzluksiz o'zaro harakatlanishi jarayoni sodir bo'lmoqda. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishdan maqsad shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi va o'z-o'zini shakllantirishiga, sub'ektiv xislatlarning namoyon etilishiga ob'ektiv tarzda siljishiga urg'u beridan iborat.

Ilmiy-amaliy modellashtirish va oliy o'quv yurtlarida tarbiya strategiyasini amalga oshirish asosida oliy o'quv yurtining maxsus tuzilmalashtirilgan tarbiyaviy tizimida amalga oshiriladigan, tarbiyaviy muhitni dinamik tarzda shakllantiruvchi va bir vaqtning o'zida u tomonidan shakllanadigan tarbiyaviy faoliyat yotadigan oliy o'quv yurtida iqtisodiy jihatdan ahamiyatli ijtimoiy-pedagogik funksiyani amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda oliy o‘quv yurti ijtimoiy-pedagogik funksiyasining faoliyatli asosini muhit va tizimga oid yondashuvlar tamoyillari, usullari, ixtisoslikka oid texnik va gumanitar tayyorgarlikni inobatga olgan holda oliy o‘quv yurtlarining tarbiya muhitini modellashtirishni ko‘zda tutadigan integratsiyalash tashkil etadi.

Zamonaviy mutaxassisni tarbiyalash uchun “Zamonaviy talaba – u kim?”, Uning qiziqishlari qanday?” ekanini tushunish zarur.

Biz o‘tkazgan tadqiqotlar oxirgi o‘n yillikda talaba yoshlar portretining turli vektorli harakatlarini aks ettiruvchi terminal va instrumental qadriyatlarning o‘zgarishlar, shuningdek, vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy, qadriyatli-mazmunli va ta’limiy yo‘nalishidagi o‘zgarishlar dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

XX asr oxiri XXI asr boshi yoshlarining qadriyatli ongi avvalgi avlodga solishtirganda tubdan o‘zgardi:

- ijtimoiy-siyosiy faoliyatga ijobiy ustanovkalar befarqlik bilan almashindi;
- siyosiy karera va hokimiyat nufuzi tushib ketdi, so‘rovnomada ishtirok etganlarning faqat 18% i bu qadriyatni muhim, deb hisoblaydilar;
- talabalar oliy o‘quv yurtida o‘qishni boshlaganlari zahoti professional karera qurish to‘g‘risida jiddiy o‘ylashni boshlaydilar.

Talaba yoshlar terminal qadriyatlari tuzilmasi: salomatlik, oila, pul, do‘stlar, ish deyarli o‘zgarishsiz qolgan, instrumental qadriyatlar esa yanada harakatchan bo‘lib, o‘ziga, o‘z kuchiga, uddaburonlikka ustanovka bilan, kerakli odamlar bilan aloqa o‘rnatishga yo‘nalish olish bilan bog‘liq bo‘lib qolgan. Terminal ta’limiy maqsadlar xususiyatlari ajratiladi – oliy ta’lim qadriyati bilimlar sifati bilan aloqador.

Bizni o‘pab turgan atrof, jamiyat – aslida bu olam, demakki, hozirgi vaqtda uni rivojlantiruvchi va unda yashovchi ko‘plab odamlar ancha agressiv, qat’iy va shafqatsiz, pragmatik va beadab bo‘lib qolgan.

I.M. Ilinskiy o‘zining “O‘ynovchi triumvirat: ta’lim, siyosat, huquq” nomli kitobida shunday deb ta’kidlaydi: “...ma’naviy va ruhiy qadriyatlar tizimi bizning ko‘z o‘ngimizda ulkan o‘zgarishga uchradi va tanazzulga yuz tutishda davom etmoqda.

Inson hayoti mazmunsiz bo‘lib bormoqda. Qaerdaki mazmun bo‘lmasa, axloqning bo‘lishi ham mumkin emas. Aholining sun‘iy erkinlik va demokratiyadan roxatlanishga tayyor yangi tipi, qo‘rqoq va ishonuvchan, zo‘ravonlikka, barcha yangi iqtisodiy krizislarga, milliy nizolar va mintaqaviy urushlarga, terrorizm va qaroqchilikka, go‘yoki Pandora qutisidan chiqayotgandek yuzaga kelayotgan behisob miqdordagi tahdid va xavf-xatarga cheksiz ravishda chidaydigan odamlar ulg‘aymoqda. Odamlar cheksiz balo-ofatlarga shunchalik o‘rgandilarki, ularni muqarrardek, me‘yoriy maishiy turmush sifatida qabul qila boshladilar”.

Birlamchi va ikkilamchi sotsiologik ma’lumotning majmuaviy tahlili bizga zamonaviy talabalikning ijtimoiy-madaniy qiyofasini taqdim etish imkonini berdi:

- talabalar asosan pragmatik qadriyatlarga mo‘ljallanganlar, ma’lumot talabalar uchun vosita sifatida qadriyatga ega;

- yoshlar ko‘proq o‘zlariga suyanishga moyildirlar;

- talabalar bir vaqtning o‘zida ikkita sohaga: xususiy (do‘stlik, nikoh, muhabbat, oila) va moddiy-instrumental (pul, mustaqillik, karera, muvaffaqiyat) ga mo‘ljallanganlar;

- talabalarni ishga qiziqsh va ijodkorlik oylik maoshdan kam qadrlmaydilar, yoshlar yuqori malaka, bilimlarning mavjudligini zaruriy shart, deb hisoblaydilar;

- talabalar, dastavval, yaqin doirada – oilada, yaqnlari va do‘stlari orasida tan olinish va hurmatga yo‘nalganlar;

- XX asrning 90-yillaridagi ma’naviy va intellektual inqiroz umuminsoniy qadriyatlarning qisman devalvatsiyasi (qadrsizlanishi) ga olib keldi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talaba yoshlar muhiti uchun xos bo‘lgan qator jiddiy muammolarni aniqlash imkonini beradi:

- yosh oilalarda institutsializatsiyaning past darajasi;

- yoshlarning fuqarolik madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligining past darajasi;

- iqtidorli yoshlarning innovatsion va ilmiy muhitga integratsiyalashuvining past darajasi;

- yosh fuqarolarning jismoniy va ma’naviy salomatligini past darajasi.

Shubhasiz, talabaning qadriyatlari, ehtiyojlaridagi o'zgarishlar ijtimoiy-kompetenlik funktsiya mazmunida ham o'zgarishlar qilishni shart qilib qo'yadi. Zamonaviy mutaxassis – bu jadal rivojlanuvchi kompetentlikga ega bo'lgan, kasbiy faoliyatini ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida amalga oshirishga qodir bo'lgan bitiruvchidir.

Kompetentli yondashuv zamonaviy ta'limni isloh qilishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. V.I.Baydenko ta'kidlaganidek, “dunyoning vaqt o'qi parvozi”dan qolib ketmaslik uchun oliy professional ta'limning davlat ta'lim standartlarini konseptual modelini bugun Boloniya (Evropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish) jarayoni doirasida shakllanayotgan yangi yo'nalishlarga ijobiy yaqinlashtirish qatorida qayta anglash zarur. Avvalo, ta'lim natijalarini baholash “tayyorlanganlik”, “ma'lumotlilik”, “umumiy madaniyat”, “tarbiyalanganlik” tushunchalari bilan “kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalariga qayta yo'naltirish jarayoni bilan birga boradigan ta'lim paradigmasining almashinuvi sodir bo'ldi. Eski paradigma malakaviy yondashuvga tayanardi. Yangi paradigma kompetentli yondashuvga tayanadi va professional ta'limda nafaqat yangi jamiyat va yangi iqtisodiyot talablarini adekvat ravishda aks ettirish, balki yangi turmush tarziga erishish, yangi, eng avval shaxsning barcha ijodiy, yuqori ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish uchun vositani ko'radi. Ta'lim paradigmasining “umrbod ta'lim”dan “butun hayot orqali” ta'limga o'zgarishi sodir bo'ladi. Ta'limning kognitiv va faoliyatli paradigmasi o'rniga E.F.Zeer fikriga ko'ra, o'qitish, tarbiya va rivojlantirish texnologiyalariga adekvat kompetentli yondashuv majmui bilan kompetentli-kontekstli va shaxsiy-rivojlanuvchi ta'lim keldi. Paradigmaning bunday vektori kasbiy ta'limdan manfaatdor barcha tomonlar – ish beruvchilar, muallimlar, talabalar va bitiruvchilarning diqqat-e'tiborini kompetensiyalar va kasbiy hamjamiyatning natijalariga tortadi.

Bu kontekstda, bizning nazarimizda, ixtisoslashgan-predmetli (kasbiy) emas, balki mehnat bozorida tezlashayotgan o'zgarishlar, raqobatli muhit sharoitida

insonning moslashuvchan strategiyasi (ta'limiy, kasbiy, shaxsiy, ijtimoiy) imkoniyatini ta'minlaydigan umummadaniy kompetensiyalar birinchi o'ringa chiqadi. Aynan insonning butun hayoti davomida jamiyatdagi me'yoriy hayotiy faoliyatini ta'minlovchi umummadaniy kompetensiyalar inson ongida mehnat qilish – doimiy o'zgarishlarga, shu jumladan, butun hayoti davomida o'qib-o'rganish darajasida ham tayyor bo'lishning yangi ustanovkasini shakllantirishda vosita bo'luvchi omil sifatida yuzaga chiqadi.

Xorijiy mualliflarning qo'llanmalarida “kompetensiya” tushunchasi ostida ishga yoki boshqa vaziyatlarga ijro mezonlari asosida samarali va/yoki eng yaxshi sabab-oqibat munosabatiga ega bo'lgan asosiy sifati tushuniladi. (L. va S.Spenserlar). Asosiy sifat kompetensiyaning inson shaxsiga juda chuqur singgan va uning barqaror qismi ekanini anglatadi hamda ko'plab vaziyatlar va mehnat vazifalarida insonning xulq-atvorini oldindan belgilashi mumkin.

Kompetensiyalar – odamlarning asosiy sifatlari “turli vaziyatlarda tarqalgan va yyetarlicha darajada uzoq vaqt davom etgan xulq-atvori yoki fikrlashi variantlarini anglatadi”.

Sirtqi kompetensiyalar (bilimlar va malakalar) ni rivojlantirish nisbatan oson. Shaxsning aysbergi asosida yotuvchi chuqur kompetensiyalar (sabablar va xislatlar) ni baholash va rivojlantirish qiyinroq; bu tavsifnomalar mavjud bo'lgan odamlarni saralab olish foydaliroq.

Mahalliy pedagogik amaliyotda kompetensiyaning quyidagi ta'rifi tez-tez uchraydi:

“Kompetensiya” tushunchasi ostida turli sohalarda – aniq bilimlar sohasida bo'lganiday, aniq ob'ektlarga sust aloqada bo'lgan sohalarda ham kasbiy vazifalarni hal qilishda bilim va malakalarni qo'llash qobiliyati va tayyorligi, ya'ni muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun mehnat bozorining o'zgaruvchan sharoitida moslashuvchanlikni namoyon etishga layoqatlilik va tayyorlik tushuniladi.

Kompetentlilik – bu muayyan kompetensiyalarga ega bo'lishdir. Oliy o'quv yurti bitiruvchisining kompetentliliigi – bu uning amaliyotda namoyish qiladigan kasbiy va ijtimoiy sohalarda muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat olib borish uchun o'z

potensial (bilimi, malakasi, tajribasi, shshaxsiy sifatlari va boshqalar) ni ro'yobga chiqarish qobiliyatidir.

Oliy professional ta'limini umumjahon talablariga moslashtirish uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda kompetentlikka asoslangan mutaxassis modelidan foydalanish ko'zda tutiladi. U oliy o'quv yurtining ta'lim natijasiga yo'nalgan bitiruvchisining qanday kompetensiyalar to'plamini egallashi lozimligi haqidagi ta'rifni o'zida aks ettiradi. "Ta'lim natijasi" tushunchasini ochib bergan cha, biz Yu.G.Turning ta'rifini olamiz: "Bu muayyan ta'lim tizimida o'qishni o'tagan insonning o'zi. Bu uning intellektual, shaxsiy, xulq-atvoriga oid shakllangan xislatlari, bilimlari va ko'nikmalarining majmui sifatida tajribasi bo'lib, unga bu bilimlar asosida istalgan vaziyatda adekvat harakat qilish imkonini beradi".

Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modelini ishlab chiqish metodologiyasining xorijiy va mahalliy tajribasini tahlil qilish bizga kompetentlik modelining o'z mualliflik ta'rifimizni kiritish imkonini berdi: "talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish – bu ilmiy tadqiqot yo'nalishda mutaxassislarni tayyorlash maqsadida iqtidorini namoyon qilishiga imkon yaratuvchi jarayon bo'lib, bu o'z mazmunida shaxsiy fazilatalarini belgilovchi, bir biri bilan muayyan aloqada turgan kompetensiyalarning zaruriy va yetarli to'plamidir".

Bizning talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modelini Respublikamiz va xorijiy mutaxassislar, tomonidan foydalanilgan yondashuvlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

1. Talabalarning dastlabki ijtimoiy kompetentli modeli kompetensiyalari tarkibini aniqlash.
2. Ekspertlar guruhlaridan tomonidan kompetentlikning validligini tahlil qilinishi.
3. Jamiyatning to'rtta guruhi: ish beruvchilar, mutaxassislar, professor-o'qituvchilar tarkibi va talablar uchun sotsiologik anketalarni ishlab chiqish.
4. Tanlovni shakllantirish va tadqiqot o'tkazish.
5. Har bir tanlov bo'yicha tadqiqot natijalarini tahlil qilish.




6. Barcha tanlov bo'yicha tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish.

7. Talabalarning yakuniy ijtimoiy kompetentlilik modelini yaratish.

Zamonaviy talaba qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi va ularni oliy o'quv yurtida shakllantirish uchun ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyatni qay tarzda boshqarishi zarur? Bu savol talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modelini ishlab chiqish zaruriyatiga olib keldi.

Biz uzluksiz o'zgaruvchan talablar, davlat, jamiyat, ish beruvchilar, professor-o'qituvchilar tarkibi, ma'muriyat tomonidan buyurtmalar yordamida talabalarning obrazini shakllantirishni taklif qilamiz (qarang: 1-rasm).

Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtining ijtimoiy-kompetentlik funksiyasini amalga oshirish davomida davlat, jamiyat, ish beruvchilar va o'quv muassasalarining uzluksiz o'zaro harakatlanish jarayoni sodir bo'lmoqda.



**2-rasm. Yangi ijtimoiy-madaniy tipdagi mutaxassis modeli tuzilmasi.**


Hayotiy faoliyatda ijtimoiy-kompetentlikga mo'ljallanish oliy o'quv yurtining ijtimoiy-pedagogik funksiyasini tubdan o'zgartiradi – ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan tarbiya, nafaqat tarbiyaviy jarayonning shart-sharoiti, balki undagi barcha ishtirokchilarni vosita sifatida tarbiya muhitidagi ijtimoiy-konstruktiv kompetentligi yuzaga chiqadigan o'zaro harakatlanish sharoitidagina mumkin bo'ladi.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish” modeli tuzilmasiga: umummadaniy, psixologik moslashuv, tilga oid kommunikatsiya, ijtimoiy o‘zaro harakatlanish; fuqarolik-huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, qadriyatli-mazmunli; shaxs xususiyatlari: mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, o‘ziga ishonch, mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, mas’uliyatlilik, kreativlik va quyidagi kompetentliklar kiradi.

Kompetentliklar:

1. Ta’lim jarayonini tizimli tartibga soluvchi hujjatlarini biladi.
2. O‘zaro ma’lumot alamashish va muloqotning asosiy turlari texnologiyasiga ega.
4. Ritorika san’atiga ega.
5. Hamkorlik qila oladi, jamoaviy ishda bajonidil qatnashadi, guruhning qarorlarini qo‘llab-quvvatlaydi, “jamoa” ruhini mustahkamlaydi va kuchaytiradi.
6. O‘z-o‘zini boshqarishning yuqori darajasiga ega, faollikni namoyon etadi, haqiqatni o‘z manfaatlariga aylantiradi, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishga intiladi.
7. Maqsadga erishish uchun o‘zi va boshqalar harakatini rejalashtiradi va muvofiqlashtira oladi.
8. O‘z ishining tabiat va jamiyatga, atrof-muhitning ekologik xavfsizligiga ta’siri uchun ijtimoiy mas’uliyatni anglaydi. O‘z-o‘zini boshqarishning yuqori darajasiga ega, faollikni namoyish qiladi
9. Salomatlikni qadriyat sifatida mustahkamlash zaruriyatini anglaydi va sog‘likni shakllantirish, saqlash va mustahkamlashga, ekologik jihatdan xavfsiz ish muhitini uyushtirishga tayyor bo‘ladi.
12. Butun hayoti davomida ta’lim olishga, o‘z mustaqil bilim olishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intiladi.

Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modeli harakatchan adaptiv xarakter kasb etib, komponentlari integral xarakterga ega bo‘lgan, pedagogik jihatdan ahamiyatli aloqalar bilan birlashadi.



3-rasm. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modeli

Model komponentlarini tashkil etuvchi elementlar ijtimoiy-madaniy sharoitlardan kelib chiqqancha uzluksiz tarzda o'zgarib turadi. Korrelyasion aloqalarning pedagogik mazmuni shundan iboratki, element boshqa elementlar bilan qanchalik ko'p ahamiyatli aloqa (zich aloqa) ga ega bo'lsa, ularga shunchalik ko'p ta'sir ko'rsatadi, bizning modelda uning sifatga doir tavsifnomasining yo'nalganligiga muayyan vektor berishi ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi,

Oddiy sanab o'tish modeli yordamida biz ishimizning ilmiy asoslangan tavsifnomasini olamiz, tasodifiylikdan, tarbiyaviy maqsadni qo'yishda sub'ektivlikdan ketamiz, chunki zamonaviy ideal mutaxassis to'g'risidagi tasavvur uni tarbiyalash maqsadini shakllantiradi.

Ishlab chiqilgan ijtimoiy kompetenlikga ega talaba modelining validligini tekshirish turli ixtisoslik va tarmoqlarni qamrab olgan 5 ta oliy o'quv yurti negizida o'tkazildi. Bu texnik va gumanitar ixtisoslikdagi zamonaviy mutaxassislar modellari o'rtasidagi ahamiyatli tafovutni aniqlash imkonini berdi.

Model asosida talabaning xislatlarini, qadriyatli va kasby yo'nalishlarini va o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniyat sharoitda kasbiy faoliyat olib borish uchun talaba shaxsining boshqa tavsifnomalarini o'rganishni ko'zda tutuvchi uzluksiz pedagogik tadqiqot jarayoni yotadi.

Bugun yoki ertaga qanday talaba kerak, degan savolga javob qaytargancha model yordamida biz mutaxassis shaxsining ilmiy asoslangan tavsifnomasini olamiz. Bu tasodifiylikdan, tarbiyaviy maqsadni qo'yishda sub'ektivlikdan ketish imkonini beradi, chunki zamonaviy ideal mutaxassis to'g'risidagi tasavvur uni tarbiyalash maqsadini modellashtiradi.

Tahlillar ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtlari amaliyotida tarbiyaviy jarayon potentsiali bitiruvchilarning kompetensiyasini shakllantirishga kiritilmaydi. Ijtimoiy-madaniy sharoitlar har doim shiddat bilan o'zgarib boradi va biz tomonimizdan kasbiy tahsil nazariyasida loyihalashirilgan oliy o'quv yurtining ijtimoiy-pedagogik funksiyasi zamonaviy mutaxassisni tarbiyalashdagi islohotchilik rolini tubdan o'zgartirishning ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

### **2.3. Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni innovasion hamkorlik asosida takomillashtirish metodikasi**

Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning pedagogic shar-sharoitlari bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida: talabalarda ijtimoiy kompetentlikni innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning tizimlilik, uzluksizlik, "Ekzistensial" yondashuv asosida GROW metodikasiga asoslangan texnologiyalardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalari barcha ta'lim yo'nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishga mo'ljallangan "Boshqaruv psixologiyasi" fanidan o'quv qo'llanma, "Kasbiy psixologiya" fanidan uslubiy ko'rsatma va "Ta'lim jarayonini doshqarish" fanidan fan dasturi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tadbqiq etish markazining 2022 yil 21 oktyabrdagi 02/01-01-55-son ma'lumotnomasi). Mazkur ishlab chiqilgan didaktik taminotlardan ta'lim jarayonida foydalanish hamda ta'lim sifatini yanada oshirish va talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish imkonini bergan.

Ixtisoslik fanlarini boshqa fanlar bilan mavzulararo uzviy bog'liqlikda, ya'ni integrasiyalashgan darslar asosida o'qitishda quyidagilar nazarda tutiladi: tabiiy-ilmiy bilimlarni dialektik birlik asosida o'rganish; o'quv fanlarining kasbiy yo'nalganligini kuchaytirish; ta'lim oluvchilarda hodisalar, qonunlar, tushunchalar, nazariyalarning o'zaro birligi haqidagi bilimlarni shakllantirish; ta'lim mazmunini maqbullashtirish; bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida amaliy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va amalda qo'llash; mashg'ulotlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari izchilligi va uyg'unligini ta'minlash; ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetentlikni takomillashtirish; mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda kompetentsiyaviy talablarning parametrlari va sifat ko'rsatkichlari majmui bo'yicha pedagogik va

texnik bilimlar integrasiyasini chuqurlashtirish hamda o'quv-uslubiy ta'minotini optimallashtirish asosida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi takomillashtirildi.

Ta'limda innovatsion hamkorlikni maqsadi, mazmuni, texnologiyasi va natijalarini o'zaro to'ldiruvchi tartib asosida loyihalashtirish hamda - bilish faoliyatidan kasbiy-yo'naltirilgan faoliyatga bosqichma-bosqich o'tish talabalarni ijtimoiy kompetentligini o'quv imkoniyatini beradigan metodik modeli "Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti hamda Jizzax politexnika instituti "Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutlarida quyidagi o'qitish metodlarini qo'llagan holda tajriba-sinovidan o'tkazildi;

*Hamkorlikdagi o'qitish metodi:* Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o'rganishni V. Ya. Lyaudis boshchiligidagi psixologlar guruhi amalga oshirib kelmoqda. Uning asosiy maqsadi yangi psixik fazilatlarning shakllanishida o'qituvchi bilan talaba (o'quvchi) hamkorligining rolini ifodalashdan iboratdir. Mazkur nazariya asosida o'quv vaziyatini talaba shaxsining rivojlanishidagi "yangi kamfort zonasinigina emas, balki "perseptiv rivojlanish zonasi"ni yaratadigan yo'sinda loyihalash mumkin.

V.Y.Lyaudis o'quv vaziyati tarkibidagi to'rtta o'zgaruvchi holatni ko'rsatadi:

- 1) tashkiliy o'quv jarayonining mazmuni;
- 2) ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati usullarini o'zlashtirish;
- 3) talaba bilan o'qituvchining o'zaro ta'siri va hamkorlik tizimi;
- 4) ta'limdagi o'zgaruvchan omillarning o'zaro aloqasini takomillashtirish.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir. Muallif hamkorlikning 8 ta shakli mavjudligini ta'kidlab o'tadi:

- 1) faoliyatga kirishish;
- 2) mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradilar);

- 3) o'qituvchi harakatlarni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi;
- 4) taqlidiy harakatlar (o'qituvchidan ibrat olgan talaba ana shu namuna asosida harakat qiladi);
- 5) madad harakatlari (o'qituvchi talabaga oraliq maqsadni va unga erishish usullarni tanlashga yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);
- 6) o'zini – o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
- 7) o'zini – o'zi qo'zg'atuvchi harakatlar;
- 8) o'zini uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlik faoliyati uchta o'zaro bog'liq fazadan iborat ekanligi V.Y.Lyaudis tomonidan ko'rsatib o'tiladi, jumladan, birinchi faza "faoliyatni egallash" deb nomlanib, u o'z ichiga ushbu hamkorlik shakllarini qamrab olgandir:

- 1) o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi birgalikda amalga oshadigan harakatlarni turkumlarga ajratuvchi tizim;
- 2) talabalarning o'qituvchi faoliyatiga taqlid qilishga asoslangan harakatlari yig'indisi;
- 3) talabalar tomonidan qo'llab – quvvatlanadigan harakatlar majmuasi; hamkorlik faoliyatining ikkinchi fazasi – talabalarni o'qituvchi faoliyatiga muvofiqlashtirilgan hamkorlik xarakatlari tizimi;
- 4) talabaning o'zini – o'zi boshqaruv xarakatlar tizimi;
- 5) talabalarning o'zini – o'zi qo'zg'atuvchi xatti – harakatlari va boshqalar.

Hamkorlik faoliyatining uchinchi fazasi – hamkorlik faoliyatidan yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishda, takomillashishida, shuningdek o'qituvchi bilan talaba hamkorligi sheriklik, teng huquqlilik darajasiga o'sib o'tishda o'z ifodasini topadi.

Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish va uni qayta qurish jarayoni bir qator qonuniyat tarzidagi holatlar, aloqalar shaklida namoyon bo'lishi mumkin. O'quv faoliyatining operasional predmetli jabhasini idora qilish quyidagicha amalga oshadi:

a) Orientir qidiruv harakatlari; b) orientir qidiruv harakatlari; v) bilishga oid orientir harakatlar ma'lum davrgacha talabalrni hamkorlik faoliyatining ma'noviy, tashkiliy jarayonlariga taalluqli hamkorlikning tarkibiy qismlarini boshqarish funksiyasini boshqarib turadi. Birinchidan, harakatning ijtimoiy – tashkiliy, motivasion – ma'noviy, predmetli tashkiliy qismlari faol ishtirok qiladi hamda hamkorlik faoliyatini mahsldor bo'lishiga ta'sir o'tkazadi. Ikkinchidan, o'qituvchining talabalarga tavsiya qilingan, mo'ljallangan hamkorlik o'quv faoliyati shakllaridan o'qituvchining rahbarligida o'zini – o'zi boshqarishga o'sib o'tish jarayoni yuzaga keladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda, hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda talabalarning aqliy imkoniyatlari, zahiralari, umumiy saviyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, o'qishga munosabati, o'zini – o'zi boshqarish darajasini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalrda uchraydigan ijtimoiy psixologik, bilishga oid kasbiy qiyinchiliklarning oldini olish uchun ta'kidlab o'tilgan mezonlarni aniqlash ko'zlangan maqsadni amalga oshirish sari etaklaydi.

*SWOT tahlili strategik rejalashtirish usuli* bo'lib, u tashkilotning ichki va tashqi muhiti omillarini aniqlash va ularni to'rt toifaga bo'lishdan iborat:

S kuchlari (kuchlari),

Zaifliklar (zaifliklar),

Imkoniyatlar haqida (imkoniyatlar),

Tahdidlar (tahdidlar).

Kuchli (S) va kuchsiz (W) tomonlar tahlil qilinayotgan ob'ektning ichki muhitining omillari, (ya'ni ob'ektning o'zi nimaga ta'sir qilishi mumkin); Imkoniyatlar (O) va tahdidlar (T) atrof-muhit omillari (ya'ni, ob'ektga tashqaridan ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va ob'ekt tomonidan boshqarilmaydiganlar). Masalan, korxonada o'zining savdo assortimentini boshqaradi - bu ichki muhit omili, ammo savdo qonunlari korxonada tomonidan nazorat qilinmaydi - bu tashqi muhit omili [1].

SWOT tahlilining ob'ekti nafaqat tashkilot, balki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlar ham bo'lishi mumkin: iqtisodiyot tarmoqlari, shaharlar, davlat



muassasalari, ilmiy sohalar, siyosiy partiyalar, notijorat tashkilotlar (NPO), alohida mutaxassislar, shaxslar., va boshqalar [64].

SWOT qisqartmasi vizual ravishda jadval shaklida ko'rsatilishi mumkin:

Ijobiy ta'sir Yomon ta'sir

Ichki muhit S tendentsiyalari (loyiha yoki jamoaning sanoatdagi boshqalardan ustunlik beruvchi xususiyatlari)

Zaifliklar (loyihani zaiflashtiradigan xususiyatlar)

Tashqi muhit Imkoniyatlar (maqsadga erishish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlaydigan tashqi ehtimoliy omillar)

T tahdidlar (maqsadga erishishni qiyinlashtirishi mumkin bo'lgan tashqi ehtimoliy omillar) 2x2 matritsada SWOT tahlilining 4 ta elementi

SWOT qisqartmasi birinchi marta 1963-yilda Garvard biznes siyosati konferentsiyasida professor Kennet Endryu tomonidan kiritilgan.inglizcha: Kenneth Andrews ).

1965 yilda Garvard universitetining to'rt nafar professori - Leraned (inglizcha: Leraned), Kristensen (inglizcha: Christensen), Endryu (inglizcha: Andrews) va Gut (inglizcha: Guth) - kompaniyaning xatti-harakatlari strategiyasini ishlab chiqish uchun SWOT modelidan foydalanish texnologiyasini taklif qildi. LCAG sxemasi (mualliflar ismlarining bosh harflari asosida) taklif qilindi, u strategiyani tanlashga olib keladigan bosqichlar ketma-ketligiga asoslanadi [44].

Usulning afzalliklari va kamchiliklari

SWOT tahlili mavjud vaziyatni dastlabki baholashda samarali bo'ladi, lekin u strategiyani ishlab chiqish yoki dinamikani sifatli tahlil qilish o'rnini bosa olmaydi.

SWOT tahlilining kuchli tomonlari:

Bu universal usul bo'lib, iqtisodiyot va boshqaruvning turli sohalarida qo'llaniladi. U har qanday darajadagi (mahsulot, korxonalar, mintaqalar, mamlakat va boshqalar) o'rganish ob'ektiga moslashtirilishi mumkin).

Bu maqsadlarga qarab tahlil qilinadigan elementlarni erkin tanlashga ega moslashuvchan usul (masalan, siz shaharni faqat turizm nuqtai nazaridan yoki faqat transport nuqtai nazaridan tahlil qilishingiz mumkin va hokazo).

U operatsion baholash uchun ham, uzoq muddatli strategik rejalashtirish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Usuldan foydalanish, qoida tariqasida, maxsus bilim va tor profilli ta'limning mavjudligini talab qilmaydi.

Kamchiliklari:

SWOT tahlili faqat umumiy omillarni ko'rsatadi. Maqsadlarga erishish uchun aniq chora-tadbirlar alohida ishlab chiqilishi kerak. Ko'pincha, SWOT tahlili asosiy va ikkilamchi omillarni aniqlamasdan, ular o'rtasidagi munosabatlarni batafsil tahlil qilmasdan faqat omillarni sanab o'tadi. Tahlil dinamikada rivojlanishni ko'rishdan ko'ra ko'proq statik rasmni beradi.

SWOT tahlilining natijalari odatda sifat tavsifi shaklida taqdim etiladi, vaziyatni baholash uchun miqdoriy parametrlar ko'pincha talab qilinadi. SWOT tahlili sub'ektivdir va uni o'tkazayotgan shaxsning mavqei va bilimiga juda bog'liq.

Yuqori sifatli SWOT tahlilini o'tkazish uchun turli sohalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni jalb qilish kerak, bu esa katta kuch va xarajatlarni talab qiladi.

SWOT tahlilining vazifasi qaror qabul qilinishi kerak bo'lgan vaziyatning tuzilgan tavsifini berishdir. Uning asosida chiqarilgan xulosalar tavsiyalar va ustuvorliklarsiz tavsiflovchidir [44].

Usulni to'liqroq qaytarish uchun maydonlarning kesishishiga asoslangan harakatlar variantlarini qurish ham qo'llaniladi. Buning uchun atrof-muhit omillari va kompaniyaning ichki xususiyatlarining turli kombinatsiyalari doimiy ravishda hisobga olinadi. Barcha mumkin bo'lgan juftlik kombinatsiyalari ko'rib chiqiladi va strategiyani ishlab chiqishda e'tiborga olinishi kerak bo'lganlar ajratiladi [43].

SIV maydoni tashqi muhitdagi imkoniyatlardan foydalanish uchun qanday kuchli tomonlardan foydalanish kerakligini ko'rsatadi.

SLS maydoni tashqi muhitning qanday imkoniyatlari tufayli tashkilot mavjud zaif tomonlarini engishga qodirligini ko'rsatadi.

SIS maydoni tahdidlarni bartaraf etish uchun qanday kuchlardan foydalanish kerakligini ko'rsatadi.


SLN maydoni tahdidning oldini olishga harakat qilish uchun qanday zaif tomonlarni yo'q qilish kerakligini ko'rsatadi.

Imkoniyatlar	Tahdidlar
Kuchli tomonlar	SIV SIOUX
Zaif tomonlar	SLV SLN

SWOT tahlili odatda iqtisodiy toifalarni o'z ichiga olmaydi, shuning uchun u faoliyatning turli sohalarida strategiyalarni yaratish uchun har qanday tashkilot, shaxslar va mamlakatlarda qo'llanilishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish va ushbu jarayonni ilmiy-uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni izlash zarurligidadir.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari ("Ta'lim jarayonini boshqarish" va "Suv xo'jaligi va melioratsiya")ni o'qitishda SWOT tahlil, Ekzistensial yondashuv asosida GROW metodikasi taklif etilayotgan ushbu metodikada talabalarning ijtimoiylashuvida maqsad, Real holat, imkoniyatlar, ko'zlangan natija va qanday harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan 4 ta asosiy; Goal, Reality, Options, Will olib boriladigan hamkorlik natijalarining tahlili amalga oshirilish va rivojlanishiga asos sifatida xizmat qiladi (4-rasmga qarang).



#### 4-rasm. GROW metodikasi asosida ijtimoiy kompetentlik tuzilmasi.

Bunday holda, ijtimoiy kompetentlikning tarkibiga kognitiv, hissiy-emosional va amaliy – faoliyatli tarkibiy qismlar kiradi, ularning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi; ijtimoiy, qadriyatli va ekzistensial yo'nalishni

tavsiflovchi, preskriptiv va kombinatsiyaga asoslangan o'quv faoliyati tashkil etilgan oliy ta'lim hamjamiyati doirasida retrospektiv yo'llar.

Ekzistensial yo'ndashuv asosidagi GROW metodikasining farqi nimada. Birinchidan, har qanday ijtimoiy voqelik ta'siri voqealar ketme-ketligini hisobga olishi kerak – ya'ni ijtimoiy kompetentlik bir qator ta'sir jarayonlarida sodir bo'ladi. Ikkinchidan, talaba va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir tomonlama bo'lishi ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularga sabab bo'ladi, uchinchidan, o'qituvchining har qanday harakati, agar u talaba uchun voqelik bo'lmasa - bu talabaning faolligi uchun hech qanday natija bermaydi, bilishimiz-anglashimiz va tafakkurlar uyg'unlashuvi - pedagogik muammoning echimi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy kompetentlik vazifalari innovatsion hamkorlikning o'zaro ta'sirida, o'quv jarayonini tashkil etishning turli shakllarida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim va unga qo'yiladigan talablar; ijtimoiy kompetentlikga asoslangan yondashuvni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish ushbu hodisaning barcha tomonlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni taqozo etadi .

Ijtimoiy kompetentlikni bevosita talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi: boshqaruv, pedagogik, loyihaviy, ijtimoiy bilimlar, ko'nikmalar, me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirish, shuningdek boshqaruv-pedagogik, loyihaviy-texnologik faoliyatni amalga oshirish hamda ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

### **3. TALABALARDA IJTIMOIIY KOMPETENTLIKNI INNOVATSION HAMKORLIK ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH**

#### **3.1. Talabalarning tajribasi va ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish muammolarini tahlil qilish (tadqiqot natijalari asosida)**

Oliy ta’lim muassasi sharoitida talabaning ijtimoiylashuvining sifat xususiyatlari ijtimoiy kompetentligini shakllantirish o‘quv – ta’lim jarayonida tashkil etiladi va takomillashtirib boriladi.

2020 yildan boshlab TIQXMMI da (hozirda TIQXMMI milliy tadqiqot universitetida) amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim kontsepsiyasi amalga oshirilmoqda, uning maqsadi ta’lim sohasining samarali o‘zaro natijasi. Etakchi mutaxassislar-ish beruvchilarning vakillari amaliy mashg‘ulotlar, mahorat darslari, ma'ruzalar o‘qish, amaliyotchilarga rahbarlik qilish, davlat imtihon komissiyalari ishida ishtirok etish, va hokazolarga jalb qilinadi.

Ta’lim xizmatlari bozorida yuqori raqobat, bir tomondan, mehnat bozori va abituriyentning manfaatlari, boshqa tomondan, ularning umidlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi va moliyaviy resurslari o‘rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. A.V. Mamatov ta'kidlaganidek, mehnat bozori tomonidan bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablarning oshishi ta’limning oldingi bosqichida ancha yuqori tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan kuchli Abituriyentga yo‘naltiradi [49, 115].

Oliy ta’limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuv kasb uchun zarur bo‘lgan vakolatlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi, bu faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish, jamiyat talablari va shaxsga bo‘lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini faollashtiradigan, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash motivatsiyasini oshiradigan, innovatsiyalar va ijodkorlik darajasida kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradigan samarali o‘qitish usullarining roli ortib bormoqda [27, 37].

Qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta’lim muassasasi o‘quv texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, dinamik

o‘zgaruvchan dunyoning talablari va ehtiyojlariga tezkor moslashish orqali talabalar tarkibini saqlab qolish va ko‘paytirish uchun sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq, oliy o‘quv yurti shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi, talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirishga ko‘maklashishi, talabalarning jamoat tashkilotlari, sport va ijodiy klublar, ilmiy talabalar jamiyatlari ishlarida ishtirokini ta'minlashi shart. S.A. Ostrikovalar va T.V. Nikulina, ushbu vazifani oliy o‘quv yurtida amalga oshirish o‘quv faoliyati kontseptsiyasiga muvofiq tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi, ta’lim muassasining maqsadli dasturlari: "talabalarni fuqarolik ta’limi", "talabalar birlashmalari faoliyatini rivojlantirish", "universitetning sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini rivojlantirish", "oliy o‘quv yurtida qulay muhit yaratish". [54, 127].

Talabalarning har tomonlama rivojlanishida talabalar hayotining dolzarb muammolarini hal qilish, ijtimoiy faollikni rivojlantirish va talabalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi muhim rol o‘ynaydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish muammolarini biz TIQXMMI MTU, MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti hamda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot va JDPI institutlari kafedralarida “Professional ta’lim” talabalarini shu bilan bir qatorda barcha yo‘nalishdagi bakalablarni tayyorlash misolida ko‘rib chiqamiz.

Davlat ta’lim dasturini o‘zlashtirgan bitiruvchi, yo‘naltirilgan kasbiy faoliyat turlariga muvofiq, quyidagi kasbiy muammolarni hal qilishga tayyor bo‘lishi kerak:

1. Ijtimoiy va texnologik faoliyat:
  - talabalar va boshqa ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash va baholash;
  - individual va ijtimoiy yetuklik darajasida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan namunaviy ijtimoiy texnologiyalarni tanlash va/yoki moslashtirish;

- talabalarning yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida ijtimoiy himoya choralarini samarali amalga oshirish;

- talabalarga aloqa salohiyatini oshirish maqsadida namunaviy ijtimoiy-huquqiy, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-mehnat tushunchalarini takomillashtirish;

- talabalarni ijtimoiy kompetentligini, shu jumladan innovatsion hamkorliklar sifatini amalga oshirish samaradorligini baholash;

- zamonaviy ijtimoiy yordam strategiyalari va modellari asosida talaba ijtimoiy guruhlarining hayoti jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy xavflarni tayyorgarlikni oshirish;

- talabalarning hayoti va individual farovonligi sharoitlarini yaxshilash uchun inson potentsialini faollashtirish texnologiyalaridan foydalanish;

- talabalar manfaatlari va ehtiyojlarini kasblararo, dinlararo hamkorlikda, turli davlat, jamoat, diniy tashkilotlar va tuzilmalarda aks ettirish.

## 2. Tashkiliy va boshqaruv faoliyati:

- talabalar ijtimoiy himoya choralarini, shu jumladan ijtimoiy xizmatlarni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish;

- fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish choralarini amalga oshiradigan tashkilotlar yoki bo‘linmalarda tashkiliy va boshqaruv faoliyatini ta'minlash;

- talabalarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash maqsadida tarmoq texnologiyalarini va idoralararo hamkorlikni tashkil etish, amalga oshirish va rivojlantirish;

- talabalarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida shaxs resurslarini takomillashtirish;

- talabalarlarni faolligini oshirish jarayonida marketing faoliyati texnologiyalaridan foydalanish;

- talabalarni ijtimoiy kompetentligini amalga oshiruvchi innovatsion hamkorlini zarur hujjatlarni yuritish va tashkil etish.

## 3. Tadqiqot faoliyati:

- ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishda amaliy tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish, miqdoriy va sifat usullaridan foydalangan holda olingan ma'lumotlarni tahlil qilish;

- kerakli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish sifati muammolari bo'yicha tahliliy hisobotlarni yaratish.

#### 4. Ijtimoiy va loyiha faoliyati:

- ijtimoiy kompetentlik sifatini oshirishga shaxs va jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-loyiha faoliyatida ishtirok etish.

#### 5. Pedagogik faoliyat:

- talabalarining ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi darajasini oshirish, sog'lom turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan maxsus ta'lim ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatni tashkil etishda ishtirok etish;

- umumiy, kasbiy va qo'shimcha ta'lim tizimida ta'lim faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etish;

- kasbiy o'zini o'zi tarbiyalash va shaxsiy o'sishni amalga oshirish [3].

A.A. Drujinina ta'kidlaganidek, ijtimoiy kompetentlik talabalarning muammolariga, yosh mutaxassislarning malakasiga, ijtimoiy himoya muassasalarining xususiyatlariga va nihoyat, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qarab farq qilishi mumkin bo'lgan turli xil ijtimoiy faoliyat turlarini nazarda tutadi. Ijtimoiy ta'limdagi zamonaviy amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar bo'lajak kadrlarni tayyorlashning mazmunli asosi sifatida universitetda o'qish jarayonida "jonli ijtimoiy voqelik" ni qayta yaratishni talab qiladi [23, 25].

Zamonaviy sharoitda talabalarning ijtimoiy kompetentligini faollashtirish, fanlararo jamoani shakllantirish, ijtimoiy dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ijtimoiy sog'lom jamiyat yaratish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, yangi texnologiyalarni (ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy marketing, ijtimoiy konsalting, ijtimoiy innovatsiya) amalga oshirishga imkon beradigan huquqiy, iqtisodiy,



psixologik va pedagogik usullarni har tomonlama qo'llay olishi kerak. (ijtimoiy tadbirkorlik).

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini aniqlash uchun I. A. Zimnaya g'oyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda kompetentlik insonning bilimga asoslangan, intellektual va shaxsan shartlangan ijtimoiy – kasbiy xarakteristikasi sifatida tegishli, shakllangan shaxsiy fazilatdir. Shu bilan birga, kompetentlik tushunchasi bilim yoki ko'nikma tushunchasidan kengroq ekanligi ta'kidlanadi, bu boshqa semantik qator tushunchasi. "Kompetentlik" tushunchasi nafaqat kognitiv va operatsion-texnologik tarkibiy qismlarni, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulq-atvorni ham o'z ichiga oladi [29, 35].

Bunday talqindagi vakolat dizning talqinimizda quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- ushbu xususiyatni talabalar faoliyatida, xulq-atvorida namoyon etishga tayyorlik;
- itimoit faollikni amalga oshirish vositalari, usullari, dasturlarini bilish, ijtimoiy va kasbiy vazifalarni bajarish, o'zini tutish qoidalari va normalarini amalga oshirish, bu vakolatlarning mazmunini tashkil etadi;
- bilimlarni amada qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikmalar, va malakalar;
- vakolat mazmuniga qiymat-semantik munosabat, uning shaxsiy ahamiyati;
- ijtimoiy faollikni hissiy - ixtiyoriy tartibga keltirish va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga mos ravishda xulq-atvorga ega bo'lish qobiliyati sifatida.

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish muammolarini tashxislash uchun (Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar misolida) biz sotsiologik so'rov ishlarini o'tkazdik.

Tadqiqot natijalariga ko'ra tanlangan mutaxassislik respondentlarning 56 foizida tadqiqot isimiz hayotiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi..

Anketa so'rov natijasida "qaysi motivlar sizning o'quv yo'nalishingizni tanlashingizga ta'sir qildi?" Respondentlarning 32 % "OTMga kirishning eng maqbul imkoniyati" javob variantini tanladilar; 24% – "oliy ma'lumot diplomini olish imkoniyati"; 28% – "kelajakdagi kasbga da'vat"; 16% – "ta'lim oluvchilarga yordam berish istagi". Tadqiqot ishtirokchilarining fikriga ko'ra, shaxsiy fazilatlar tanlangan mutaxassislikka mos keladi (62 %).

Respondentlarning 64 %iga ko'ra, professional ta'lim yo'nalishida o'qish ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va amalga oshirishga yordam beradi; so'rovda qatnashgan talabalarning 55 % uchun "professional ta'lim" yo'nalishi bo'yicha o'qitish shaxsiy fazilatlarini "yaxshi tomonga" o'zgartirishga yordam beradi. Talabalarning shaxs va professional sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan o'quv jarayonining asosiy elementlari orasida dolzarb va qiziqarli o'quv fanlari, "Professional ta'lim" kafedrasida o'qituvchilarining yuqori professionalligi, ijtimoiy va ijodiy faoliyatda ishtirok etish, ilmiy-tadqiqot faoliyati qayd etildi, bu bizning fikrimizcha, ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishi va auditoriyadan tashqari va ilmiy-tadqiqot faoliyati mazmunining ko'rsatkichidir.

OTMda muvaffaqiyatli o'qish va asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabaning OTMgacha (maktab) tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi. Ushbu holat so'ralgan talabalarning 62% tomonidan qayd etilgan. Biroq, respondentlarning 56% ga ko'ra, ular maktabda olgan tayyorgarligi aniq yetarli emas edi.

Olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 26% ijtimoiy kompetentlikni jamiyatda o'zini tutish qobiliyati, jamiyat faoliyati qonunlarini bilish, xulq-atvor normalari va odob-axloq qoidalarini bilish, ma'lum bir ijtimoiy sohada o'zini namoyon qilish qobiliyati, jamiyat talablariga moslashish qobiliyati bilan bog'laydi. Respondentlarning 19% ko'ra, ijtimoiy kompetentlik insonning muloqot qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ularning fikriga ko'ra, ijtimoiy kompetentlik – bu odamlar bilan hech kimning manfaatlariga zarar bermasdan muloqot qilish qobiliyati, har bir kishiga yondashuvni topish, nizolarni munosib hal qilish qobiliyati. Respondentlarning 14% ushbu kontseptsiyani

professionallik, biznes masalalariga e'tibor, professional sohada raqobatbardosh va talabga ega bo'lish qobiliyati bilan aniqlaydi. Respondentlarning 9% ga ko'ra, ijtimoiy kompetentlik inson faoliyatining axloqiy tomoni bilan bog'liq. Respondentlarning ushbu qismi nuqtai nazaridan, boshqa odamning huquqlarini buzish, o'z vazifalarini bajarish, nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun javobgarlik, bag'rikenglik, hurmat, adolat, vijdonlilik va mehnatsevarlikni istisno qiladigan odamlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lgan odam ijtimoiy jihatdan javobgar deb hisoblanishi mumkin. Ushbu savolga talabalarning 15% javob berishda qiynalishdi.

Respondentlarning 17% biz o'rganayotgan kontseptsianing mohiyatini tushunishga yaqinroq bo'lib, ijtimoiy kompetentlikni odamda ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning mavjudligi bilan bog'lab, turli xil ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish, o'zlarining ijtimoiy funktsiyalarini to'g'ri va samarali bajarish, o'zlariga va hayotlariga ishonch berish imkonini beradi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, turli talabalar orasida ijtimoiy kompetentlikni tushunish uning turli tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, respondentlarning aksariyati (57%) asosan ijtimoiy kompetentlikni anglaydilar, operatsion tarkibiy qism mavjudligini ko'rsatib, ijtimoiy ko'nikma va malakalarning mavjudligi bilan (jamiyatda o'zini tutish qobiliyati, jamiyat faoliyati qonunlarini bilish, xulq-atvor normalari va odob-axloq qoidalarini bilish, ma'lum bir ijtimoiy sohada o'zini namoyon qilish qobiliyati, jamiyat talablariga moslashish qobiliyati). Qolgan respondentlar ijtimoiy kompetentlikni kommunikativ ko'nikmalar bilan bog'lashadi va shu bilan uning kommunikativ tarkibiy qismini ochib berishadi.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, aksariyat talabalar ijtimoiy kompetentlikning mohiyati haqida gapirganda, uning tarkibiy qismiga (mazmunli, operatsion, kommunikativ) ishora qildilar.

Respondentlarning ijtimoiy bilimlarni shakllantirish darajasi to'g'risidagi savollarga javoblarini tahlil qilish, talabalar ijtimoiy kompetentlikning mohiyatini tushunishadi, ijtimoiy bilimlarning hozirgi va kelajakdagi hayotlari uchun

qadriyatlarini bilishadi degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Ular ijtimoiy bilimlarning yuqori darajasi, ularni to'ldirish istagi va shunga mos ravishda tarkibiy qismning yuqori darajada shakllanishi bilan ajralib turadi.

Respondentlarning 68% ijtimoiy bilimlarning qadriyatlarini tan olishadi va ularning ijtimoiy hayotlari uchun zarurligini tushunishadi, bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga intilishadi. So'rovda qatnashganlarning 16% da talabalar tomonidan qadr-qimmat sifatida tan olinmagan zarur ijtimoiy ma'lumotlar mavjud emas, ularning jamiyatdagi turli xil ijtimoiy rollarni bajarish zarurati innovatsion hamkorlik asosida takomillashib borishi tushuniladi.

Ijtimoiy kompetentlikning operatsion tarkibiy qismini tashkil etuvchi zarur rolli to'plamni bajarish uchun talabalarga zarur bo'lgan muayyan ko'nikma va tajribalarning mavjudligi yoki yo'qligi, shuningdek, anketa so'rovi materiallari asosida aniqlandi. Uning natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyati (62%) ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishning o'rtacha darajasini ko'rsatdi. Respondentlarning atigi 16% ushbu ko'nikmalar uning yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. So'rov ishtirokchilarining 22% ijtimoiy ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligini tan olishdi.

Talabalarining so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, malakali yosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha asosiy vazifani bajarib, ta'lim muassasasi ularni mehnat bozorida mustaqil ish izlashga yetarli darajada tayyorlamaydi. Kasbiy faoliyatini rejalashtirish bo'yicha bilimlarning etishmasligi talabalar kasbiy shakllanishining dastlabki bosqichida mehnat bozoridagi vaziyatga mos kelmaydigan holatda bo'lishlari mumkinligidan dalolat beradi.

So'rov natijasida biz zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish muammosining ahamiyatini aniqladik. Respondentlardan ijtimoiy bilim va ko'nikmalar darajasini oshirish uchun ta'lim muassasasi nima qilishi kerakligi to'g'risida o'z takliflarini kiritish talab qilindi. Shunday qilib, so'ralgan talabalarining 24% ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan fanlarni o'rganish bo'yicha o'quv kurslari sonini ko'paytirishni taklif qilishdi; respondentlarning 22% ijtimoiy funktsiyalarni

bajarish sohasida bilim va ko'nikmalar beradigan ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning ahamiyatini ta'kidladilar; respondentlarning 18% faol o'qitish usullarini joriy etish, o'yinlar, seminar-treninglar va davra suhbatlari; talabalarning 14% – talabalarning ushbu sohadagi ehtiyojlarini aniqlash uchun vaqti-vaqti bilan ijtimoiy so'rovlar va testlarni o'tkazish zarurati; Respondentlarning 12% ta'lim muassasining qoshida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan tashkilotlar, maslahat markazlari ro'yxatini kengaytirishni xohlashadi; respondentlarning 7% darsdan tashqari vaqtda ixtiyoriy darslarni joriy etishni taklif qilishdi, bu erda istagan talabalar ijtimoiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkinligi ta'kidlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Talabalarni ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishda ularni ilm-fanga jalb qilish masalalari orqali xam samarali natijarga erishish tadqiqot ishimizni dolzarbligini ta'minlaydi.

Talabalarni ilm-fanga jalb qilish muammosini ob'ektiv o'rganish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy salohiyatini rivojlanish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy ishlarga bo'lgan motivatsiyasini o'rganish uchun ijtimoiy so'rov yordamida kichik tadqiqotlar o'tkazildi.

Tadqiqot ishimiz ketma-ket bir necha bosqichda o'tkazildi:

- birinchi bosqichda talabalarning ilmiy faoliyatga munosabatini baholashga imkon beradigan bir qator savollarni o'z ichiga olgan anketa tuzildi;
- ikkinchi bosqichda, har qanday tadqiqotda bo'lgani kabi, statistik hisoblash usullaridan foydalanganda respondentlarning kerakli soni aniqlandi. Namuna sonini va Laplas funktsiyasining qiymatlarini hisoblash formulasiga asoslanib, yetarli miqdordagi respondentlar aniqlandi. Shunday qilib, tadqiqotni o'tkazish uchun 244 talaba o'rtasida so'rov o'tkazish bilan kifoyalandik;
- uchinchi bosqichda o'tkazilgan so'rov tahlili bajarildi.

Tadqiqot ishimiz Toshkent irrigatsiya va qishlaq xo'jaligini mexanizastiyalsh muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti "Gidromelioratsiya" va "Qishloq

xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakultetlarining, “Professional ta’lim” yo‘nalishi va boshqa yo‘nalish talabalarida, Jizzax politexnika institutida, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida olib borildi.

Tajriba sinov natijalari biz ishlab chiqqan talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modelining samaradorligini tasdiqladi. Olingan ma’lumotlar talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish darajasida sezilarli o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Misol sifatida, 2-jadvalda o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalari, refleksiv ko‘nikmalari va mustaqil faoliyat ko‘nikmalari takomillashtirish darajasidagi o‘zgarishlar keltirilgan.

## 2-jadval

### Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish ko‘rsatgichlari % da (tajriba sinov boshuda va yakunida)

Mezonlar		T.G.			N.G. № 1			N.G. № 2		
		tajriba boshida (A1)	tajriba yakunida (A2)	$\Delta A$	tajriba boshida (B1)	tajriba yakunida (B2)	$\Delta B$	tajriba boshida (C1)	tajriba yakunida (C2)	$\Delta C$
O‘zaro hamkorlik ko‘nikmalari	yuqori	16,6	37,5	+20,9	13,6	18,2	+4,6	41,4	44,9	+3,5
	o‘rta	29,2	37,5	+8,3	31,9	40,9	+9	41,4	51,6	+10,2
	<b>past</b>	54,2	25	-29,2	54,5	40,9	-13,6	17,2	3,5	-13,7
Refleksiv ko‘nikmalari	uyqori	12,5	12,5	0	9,1	9,1		51,7	58,6	+6,9
	o‘rta	37,5	62,5	+25	31,8	36,3	+4,5	27,6	20,7	-6,9
	yyetarli emas	29,2	16,7	-12,5	31,8	27,3	-4,5	17,2	17,2	0
	<b>past</b>	20,8	8,3	-12,5	27,3	27,3	0	3,4	3,4	
Mustaqil faoliyat ko‘nikmalari	takomillashgan	16,7	70,8	+54,1	18,2	36,4	+18,2	24,1	72,4	+48,3
	qisman takomillashgan	75	29,2	-45,8	81,8	63,6	-18,2	75,9	27,6	-48,3
	<b>takomillashmagan</b>	8,3	0	-8,3	0	0	0	0	0	0

Tajriba sinov ishimizning yakuniy natijalarini tahlil qilganda tajriba guruhida o‘rganilgan ko‘nikmalarni takomillashtirishda aniq o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatadi: o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning yuqori va o‘rta

darajalariga ega bo'lgan talabalar soni sezilarli darajada oshdi; refleksivlikning o'rtacha rivojlanish darajasiga ega talabalar soni ko'paydi; tajriba guruhdagi talabalarning (nazorat guruhidan farqli o'laroq №1) mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllanganligi kuzatildi.

Talabalarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish darajasidagi ijobiy o'zgarishlar (o'zaro hamkorlik, reflektiv va mustaqil faoliyat qobiliyatlari) ularning tezkor moslashishi ijtimoiy kompetentlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatdi va hissiy holatdagi ijobiy o'zgarishlarda, innovatsion hamkorlikda, shuningdek, talabalar va o'qituvchilar bilan shaxsiy munosabatlarni yaxshilashda namoyon bo'ldi (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning natijaviy ko'rsatgichlari % da (tajriba sinov boshuda va yakunida)

Mezonlar		T.G.			N.G. № 1			N.G. № 2		
		tajriba boshida (A1)	tajriba yakunida (A2)	$\Delta A$	tajriba boshida (B1)	tajriba yakunida (B2)	$\Delta B$	tajriba boshida (C1)	tajriba yakunida (C2)	$\Delta C$
Ijtimoiylashgan ko'rsatgichlari	yuqori	8,3	20,8	+12,5	27,3	13,6	-13,7	41,4	51,7	+10,3
	o'rta	50	70,8	+20,8	45,4	50,0	+4,6	44,8	34,5	-10,3
	<b>past</b>	<b>41,7</b>	<b>8,3</b>	<b>-33,4</b>	<b>27,3</b>	<b>36,4</b>	<b>+9,1</b>	<b>13,8</b>	<b>13,8</b>	<b>0</b>
Tashabbuskorlik hissi	ijobiy	62,5	91,7	+29,2	63,6	63,6	0	82,8	89,6	+6,8
	<b>salbiy</b>	<b>37,5</b>	<b>8,3</b>	<b>-29,2</b>	<b>36,3</b>	<b>36,3</b>	<b>0</b>	<b>17,2</b>	<b>10,4</b>	<b>-6,8</b>
Moslashuvchanlik darajasi	yuqori	0	20,8	+20,8	4,5	13,6	+9,1	31,0	51,7	+20,7
	o'rta	75	79,2	+4,2	68,2	59,1	-9,1	65,5	48,3	-17,2
	<b>past</b>	<b>25</b>	<b>0</b>	<b>-25</b>	<b>27,3</b>	<b>27,3</b>	<b>0</b>	<b>3,5</b>	<b>0</b>	<b>-3,5</b>

Tajriba sinov ishimizning umumlashtirilgan yakuniy bosqichlari davomida olingan natija quyidagilarni ko'rsatdi:

- №1 nazorat guruhida (1-bosqich talabalari) ijtimoiy kompetentlik va innovatsion hamkorlik ko'rsatkichlari past darajasi aniqlandi. Yakuniy taxlil shuni

ko'rsatdiki, ushbu guruhda o'rganilgan vaqt davomida talabalarning shaxsiy fazilatlarida sezilarli o'zgarishlar bo'lmagan. Universitetning ta'lim muhitiga moslashish jarayoni ularning aksariyati uchun muammoli bo'lib, olti kishida (27,3%) tushkunlik va inqiroz holati kuzatildi;

- №2-sonli nazorat guruhida (yuqori bosqich talabalari), tajriba guruhi va №1-sonli nazorat guruhidagi talabalar bilan taqqoslaganda, eng yuqori moslashish darajasi qayd etilgan. Tahlil natijasi qo'yilgan barcha parametrlar bo'yicha (o'zaro hamkorlik, refleksiv va mustaqil faoliyat qobiliyatlari, ijtimoiylashgan ko'rsatgichlari, tashabbuskorlik hissi, moslashuvchanlik darajasi) 1- bosqich talabalari yuqori bosqich talabalardan oshib ketishdi. Yakuniy taxlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu ikkala guruh talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish muvaffaqiyatli bo'ldi, ushbu ikkala guruhda xam takomillashmagan talabalar kuzatilmadi;

Tajriba guruh boshlang'ich bosqichda talabalarning ijtimoiy kompetentligining innovatsion hamkorlik asosida takomillashishi pastki darajasi aniqlandi. Tahlil natijasi bo'yicha ushbu talabalar guruhi №1-sonli nazorat guruhiga yaqin edi va №2-sonli nazorat guruhidan past ko'rsatkichlar bilan ajralib turardi. Tajriba guruh, shuningdek, talabalarning 1-sonli nazorat guruhi 1- bosqich talabalari edi , talabalarning ikkala guruhi ham ijtimoiy kompetentligi oldingi bosqichida salbiy ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan, ta'lim muassasining sharoitlariga moslashish davrida bir xil qiyinchiliklarga duch kelgan va ular uchun qiyin bo'lgan davrda atrofdagilar tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan. Tajribaning yakuniy tahlil natijalari, №1-sonli nazorat guruhidan farqli o'laroq, ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning amalga oshirilgan modeli tufayli talabalarni ta'lim muhitiga moslashtirish muvaffaqiyatli bo'lib, ijtimoiy kompetentligi takomillashmagan talabalar yo'q. ijtimoiy kompetentlik darajasi bo'yicha ushbu guruhning talabalari 2-sonli nazorat guruhining talabalaridan sezilarli farqlarga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:



O'qish yillarida talabalar ma'lum amaliy tajriba to'plab, har doim ham jamiyatda turli funktsiyalarni bajarishga tayyorgarligi yetarli emas, ko'pincha tegishli ijtimoiy tajribaga va ijtimoiy kompetentlikga ega bo'lmaydilar.

Bizning fikrimizcha, tadqiqot davomida aniqlangan va asoslangan bir qator shartlar ijtimoiy kompetentlikni innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishga yordam beradi:

- yosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ijtimoiy axborot va ijtimoiy bilimlarga ega bo'lgan fanlarni tizimli o'rganishni ta'minlaydigan uzluksizlik tamoyillariga rioya qilish;

- talabalarning kelajakdagi faoliyatida (ham ijtimoiy, ham kasbiy) simulyatsiya qilingan vaziyatlarda o'qitishni ta'minlaydigan ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish texnologiyalarini o'zlashtirishning faol usullaridan foydalanish, bu talabalarda zarur ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida talabalarning asosiy ijtimoiy funktsiyalarni bajarishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan amaliy ijtimoiy tadqiqotlardan foydalanish, ya'ni talabalarning innovatsion hamkorlik asosida seminar, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarni sezilarli darajada qayta taqsimlash, bu esa samarali va dinamik modelni amalga oshirishga imkon beradi.

- talabalar bilan auditoriyadan tashqari ishlarda ularni universitetni tugatgandan so'ng asosiy ijtimoiy rollarni bajarishga to'liq tayyorlaydigan shakllardan foydalanish (masalan, yosh olimlar muammolari, ish bilan ta'minlash muammolari, siyosiy vakolatlar va boshqalar bo'yicha psixologik va maslahat klubini tashkil etish).;

- talabalarning ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish sohasidagi qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolarini maqsadli o'rganish.

Shunday qilib, quyidagi qarama-qarshiliklar aniqlandi: zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyatga tayyor bo'lgan OTMlarning malakali bitiruvchilariga jamiyatning yuqori ehtiyoji va bitiruvchilarining malakasini oshirishga qaratilgan qo'shimcha o'quv dasturlarining etishmasligi; oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining

kompetentligi holatiga ijtimoiy-madaniy va siyosiy vaziyatning talablari va OTMlarning ushbu muammoga yyetarlicha e'tiborini oshirish; OTMlarda talabalar o'rtasida ijtimoiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha to'plangan tajriba va uning ilmiy va uslubiy asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasidagi ziddiyat.

### **3.2. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modelining tahlili**

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligi jamiyatda shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish uchun sharoit va imkoniyatlar tizimi sifatida rivojlanayotgan ta'lim muhitini yaratish bilan bog'liq.

OTM sharoitida ta'limni pedagogik jarayon sifatida tashkil etish faqat an'anaviy pedagogika doirasida samarali bo'lishi mumkin emas, bu talaba yoshlarni tarbiyalash jarayonini madaniy va tarixiy tajribaning oldingi namunalari bir tomonlama uzatish va uning "tayyor" qadriyatlari, madaniy shakllari, normalari va qoidalarini takrorlash ijtimoiy o'zaro ta'sir va aloqa sifatida ko'rib chiqadi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda talaba yoshlar bilan samarali tarbiyaviy ishlarning uslubiy asosi talabalarning maksimal darajada o'zini o'zi anglashiga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan gumanistik ta'lim paradigmasi hisoblanadi. Shunga muvofiq, ta'lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, OTMning o'quv jarayonini, talabalarning yanada samarali va kasbiy rivojlanishini, ularda ijtimoiy faollikni shakllantirishni va ularning to'liq o'zini o'zi anglashiga hissa qo'shadi.

Bunday holda, OTMda o'quv jarayonining tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirish haqida gapirishimiz mumkin. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta'lim muassasasining asosiy tarbiyaviy maqsadlari talabalar o'rtasida ijtimoiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirish, OTM bitiruvchisi shaxsini fuqarolik javobgarligi va vatanparvarlik fazilatlarini bilan tarbiyalash, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotida faol ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rishdir.

Shu munosabat bilan talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish modelini ishlab chiqish muammosi dolzarbdir.

Biz qo‘ygan vazifaga erishish uchun, birinchi navbatda, ushbu muammoni hal qilishning asosiy nazariy yondashuvlarini tavsiflash va "model" tushunchasining umumiy ta'rifini berish kerak.

Model-aqliy yoki shartli tasvir, ularning asosiy tipik xususiyatlarini ramziy shaklda takrorlaydigan ob'ekt, jarayon yoki hodisaning analogi; ijtimoiy jarayonlardagi tuzilish, xatti-harakatlar turi va o‘zaro ta'sir jarayonlarining ramziy tasviri [18, 244].

Zamonaviy fanda modellarni yaratish jarayoni modellashtirish deb ataladi. Bu prototipning individual jihatlari va xususiyatlarini o‘rganish uchun tadqiqot vositasi bo‘lib xizmat qiladi va murakkabni soddalashtirishga, ob'ekt yoki jarayonni puxta va har tomonlama o‘rganish uchun qulayroq qilishga imkon beradi.

Modellar ko‘pincha tavsifiy deb tasniflanadi, bu pedagogik jarayonning asosiy elementlarining mohiyati, tuzilishi, hodisasi haqida tasavvur beradi; jarayonni, ularning ijtimoiy muhit bilan aloqalari tizimidagi hodisani aks ettiruvchi funktsional; ko‘rib chiqilayotgan jarayon yoki hodisaning kelajakdagi holati to‘g‘risida nazariy jihatdan asosli tasavvur beradigan prognostik.

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini shakllantirish modeli normativ-huquqiy, tashkiliy - boshqaruv, axborot-tahliliy, resurslarni qo‘llab - quvvatlash, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish, kadrlar tayyorlash, ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash va maqsadli dasturlarni amalga oshirish sharti bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish kontseptsiyasini ishlab chiqish.

2. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini shakllantirish uchun tashkiliy-uslubiy shart-sharoitlar, vositalar, usullarni ta'minlash.

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish modelini ishlab chiqishda biz quyidagilardan kelib chiqqanmiz:

1. Kelajakdagi mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi uning ijtimoiy kompetentligidir. Uning asoslari to‘g‘ridan-to‘g‘ri universitetda o‘qish davrida qo‘yiladi va shakllanadi. Ushbu jarayon ularda

bilim, ko'nikma, mahorat, munosabat, shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar to'plamini o'z ichiga oladi, bu ularga huquqiy sohada ijtimoiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Hayot davomida har qanday odam har xil ijtimoiy vaziyatlarda va har xil vaqt oralig'ida – kundalik, soatlik muammolardan tortib uzoq hayot istiqbollari qadar muammolarni hal qilish uchun doimiy ravishda tanlov qilishi va qaror qabul qilishi kerak.

2. Talabalarni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda moslashtirish va o'zini o'zi anglashda ijtimoiy kompetentsiya va muammolarni aniqlash, ularni anglash, tushunish, vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan muqobil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning roli katta; muammoni hal qilishning mumkin bo'lgan variantlarini topish; turli xil variantlarning oqibatlarini hisoblash; mumkin bo'lgan variantlardan birini tanlashni amalga oshirish qarorni amalga oshirish.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy sharoitda talabarning ijtimoiy kompetentligi tarkibidagi asosiy ko'nikmalardan biri bu ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatidir, bu esa noaniqlik va xavf sharoitida o'zini tutish uchun yetarli strategiyani tanlashga imkon beradi. Aynan shu mahorat unga murakkab ijtimoiy muhitda harakat qilish, ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish va tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda o'zini o'zi anglashga imkon beradi.

3. Talabalarining ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlar sifatida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin: qaror qabul qilish jarayonining qiymat jihati; aks ettiruvchi, shu jumladan shaxsning o'zi va ijtimoiy muhit haqidagi bilimlari; shaxsning maqsadga muvofiqligi va mustaqilligini aks ettiruvchi ijro etuvchi va faoliyat.

Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy kompetentsiya talabalarining yaxlitligi integratori bo'lib, ularning muayyan vaziyatlarda o'zini tutishi, kasbiy faoliyati va hayot yo'li davomida o'zini o'zi anglashi uchun javobgardir.

4. Talabalarining ijtimoiy kompetentlik jarayoni kasbiy va huquqiy, axloqiy, psixologik, jismoniy, tayyorgarlik jarayonida olingan maxsus bilimlar,

munosabat, usullar, texnikalar, ko'nikmalarning doimiy ishlaydigan tizimi sifatida tavsiflanishi mumkin.

Ular talabalar manfaatlariga muvofiqligi, talabalarga ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy, psixologik, pedagogik va madaniy-hordiq chiqarish sohalarida ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish bilan bog'liq.

Shunday qilib, modelning maqsadi universitetning ta'lim sohasida shaxsning yosh xususiyatlari va individual hayotiy tajribasiga muvofiq ko'rib chiqilgan talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishdir.

Shunga ko'ra, modelning tarkibiy elementlari qiymat-orientatsiya, mazmunli, faoliyat-amaliy va baholash-refleksiv bloklardir.

*1. Ishlab chiqilgan modelning qiymatga yo'naltirilgan bloki talabalarning ta'lim faoliyatini qadriyatlar dunyosiga quyidagi yo'nalishlarda yo'naltirishni o'z ichiga oladi:*

1. Umumiy dunyoqarash, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-huquqiy qarashlar va e'tiqodlarni rivojlantirish (masalan, mutaxassisning fuqarolik pozitsiyasi).

2. Kelajakdagi mutaxassislar orasida axloqiy e'tiqodlar, qadriyat yo'nalishlari, kasbiy faoliyatning ehtiyojlari va motivlari tizimini rivojlantirish.

3. Kasbiy xulq-atvor va odamlar bilan muloqot madaniyatini singdirish.

*2. Kontent bloki-bu oddiy va g'ayrioddiy vaziyatlarda xizmat vazifalarini samarali hal qila oladigan mutaxassisning shaxsini tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishning asosiy maqsadi.*

Buning uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:

– talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining boshlang'ich darajasini tashxislash

– o'z-o'zini takomillashtirishga munosabatni shakllantirish

– o'quv guruhida aloqa va xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish;

– talabalar madaniyati darajasini umumiy oshirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish

– kasbiy muloqot va o'zaro ta'sir madaniyatini shakllantirish

– rasmiy faoliyatni shakllantirish, ijtimoiy-huquqiy xavfsizlik hissi, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash ko'nikmalarini rivojlantirish

– kelajakdagi xizmat faoliyatining ijtimoiy va kasbiy rollarining mohiyatini tushunish;

– amaliy faoliyat sharoitida xizmat vazifalarini bajarishga aqliy tayyorgarlikni, shuningdek o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish.

3. *Faoliyat va amaliy blok tadbirlarni* amalga oshirishning kontseptual, resurs va nazorat-tashkiliy tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Universitet talabalarining ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va usullarini sinovdan o'tkazishni o'z ichiga oladi.

4. *Baholash va aks ettirish bloki* ma'lum bir o'quv davrida rivojlangan talabalarining o'z ijtimoiy va kasbiy madaniyatini ko'rib chiqishni ta'minlaydi. U quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

– insonning o'zi va ijtimoiy muhit haqidagi bilimlari, ular asosida vaziyatlarni tahlil qiladi va qarorlar qabul qiladi

– mustaqil kognitiv faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o'zini o'zgartirish qobiliyati (harakatlar maqsadlari, vositalari va oqibatlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish va tuzatish);

– qiymat mezoni

– ijro etuvchi va faoliyat mezoni (qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish qobiliyati);

– o'z-o'zini tartibga solish.

Monitoring universitet talabalarining ijtimoiy vakolatlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning eng muhim sharti sifatida qaraladi. Monitoring tizimiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

– universitet talabasining ijtimoiy kompetentsiya modelini amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsadlarga erishish darajasini o'rganish va baholash

– universitet talabalarining amalga oshirilayotgan ijtimoiy kompetentsiya modelini boshqa oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirilayotgan talabalarning ijtimoiy kompetentsiya modellari bilan taqqoslash;

– talabalarning ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirishning an'anaviy va innovatsion usullari samaradorligini baholash, ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirishning eng samarali strategiyasini tanlash, vaziyatni bashorat qilish.

Barcha bloklar quyidagi ish usullari bilan tavsiflanadi:

1) shaxsni o‘rganish usullari: kuzatish; amaliy faoliyatni tahlil qilish; test, yozma so‘rovlar, og‘zaki suhbatlar (individual va guruh);

2) tarbiyaviy ta'sir usullari: ishontirish, misol, talabalarni turli tadbirlarga kiritish; rag‘batlantirish.

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish modelining tizimni tashkil etuvchi elementlari quyidagi shartlarni hisobga oladi:

- oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik va uslubiy bazasi imkoniyatlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv holatlar;

- faoliyat mazmunini shakllantirishning asosiy didaktik tamoyillariga rioya qilish;

- tayyorgarlik jarayonida bosqichma-bosqich nazorat qilish, amalga oshirish natijalari bo‘yicha natijalarni har tomonlama tahlil qilish: samaradorlik ko‘rsatkichlarini, amalga oshirish va takomillashtirishning yangi imkoniyatlarini aniqlash.

Modelning ishlash mezonlari talabalarining asosiy ijtimoiy funksiyalarini bajarishga tayyorligi bo‘ladi: amaliy( amaliy hayotda ijtimoiy bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashdan iborat); moslashuvchan (talabalarga o‘z ehtiyojlari, imkoniyatlari, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga, jamiyatning boshqa a'zolari, ijtimoiy mikro guruhlar, institutlar, tashkilotlar va umuman jamiyat bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beradi); integrativ (jamoaga, ijtimoiy guruhga qabul qilish imkoniyatini beradigan); orientatsiya (ijtimoiy va kasbiy faoliyatida u yoki bu yo‘nalishni tanlashga imkon beradigan); maqom (shaxsning o‘z bilimlari va ko‘nikmalariga mos keladigan ma’lum bir ijtimoiy maqomga ega bo‘lishidan iborat

bo'lib, bu odamga jamiyatda tegishli o'rinni egallashga imkon beradi); va rol (shaxslar tomonidan ijtimoiy rollarni o'zlashtirish va ular tomonidan ijtimoiy-madaniy me'yorlarni o'zlashtirishdan iborat) funksiyalari.

Tadqiqot muammosining dolzarbligi davlat va jamiyatning faoliyatning turli sohalarida professional bo'lgan malakali yosh mutaxassislariga yuqori ehtiyoji bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlarda talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish muammolari keng yoritilganligi, ammo zamonaviy mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda oliy o'quv yurtlarida talabalar o'rtasida ijtimoiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni faollashtirish talab etiladi.

Ijtimoiy kompetentlik masalasi umumiy va xususiy xarakterdagi bir qator holatlar tufayli dolzarbdir. Ijtimoiylashuv ta'sirining ko'payishi bilan ta'lim va yosh mutaxassislarni tayyorlashning ahamiyati oshadi. Oliy ta'lim siyosati nafaqat milliy manfaatlarni, balki ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatadigan global rivojlanishning umumiy tendentsiyalarini ham hisobga oladi, xususan:

- Talabalarining siyosiy va ijtimoiy tanlov imkoniyatlarini kengaytirish, bu yoshlarning ushbu tanlovga tayyorligini oshirish zarurligini taqozo etadi;

- Talabalarining o'zaro munosabatlari amaliyotini kengaytirish, shu munosabat bilan butun aholi, xususan, yosh mutaxassislar orasida muloqot va bag'rikenglik omillari alohida ahamiyatga ega bo'ladi;

- Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" millat boyligining 70-80 foiziga yetadigan inson manfaati va yoshlarning ijtimoiylashuvining ahamiyati ortib bormoqda, bu esa o'z navbatida zamonaviy talaba yoshlardan sifatli ta'lim olishni dolzarbligini oshiradi.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish va ushbu jarayonni ilmiy-uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni izlash zarurati edi. Ijtimoiy kompetentlik tadqiqot ob'ekti edi. Tadqiqot mavzusi-talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.



Tadqiqot davomida uning maqsadi talabalarining ijtimoiy va kasbiy kompetentligini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlarini ochib berish va talabalarining ijtimoiy va kasbiy kompetentligini shakllantirish modelini ishlab chiqish edi.

Tadqiqotning quyidagi vazifalari ham hal qilindi:

– talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning didaktik ta’minoti ochib berildi;

– talabalarining ijtimoiy va kasbiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish muammolari aniqlandi;

– talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari tizimli yondashuv edi (V.G.Afanasyev, V.N.Sadovskiy, A.I.Subetto); shaxsiy faoliyat yondashuvi (M.S.Kagan, A.N.Leontiev, D.B.Elkonin); ta’limdagi shaxsiy faoliyat yondashuvi (A.L.Andreev, E.V.Bondarevskaya, N.F.Talizina); kompetentligga asoslangan yondashuv (V.I.Baydenko, I.A.Zimnaya), ijtimoiy va kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar (V.M.Basova, N.N.Ushakova).

Tadqiqot usullari maxsus va ilmiy adabiyotlarni nazariy o‘rganish va tahlil qilish, hujjatlarni tahlil qilish, ekspert so‘rovi, so‘rovnomalar, empirik ma’lumotlarni talqin qilish va tahlil qilishning statistik usullari (tavsiflovchi statistika, korrelyatsion tahlil) edi.

Biz “kompetentlik” tushunchasi bilim, malaka, ko‘nikmalarga, shuningdek ularni kasbiy faoliyatda, ijtimoiylashuv va shaxsni rivojlantirishda amalga oshirish usullariga ega degan xulosaga keldik. “Kompetentlik” tushunchasi kasbiy faoliyatning ma’lum bir sohasidagi bilim va tajribadir. Demak, professional ta’limdagi kompetentsiyaga asoslangan yondashuv kasb uchun zarur bo‘lgan vakolatlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi, bu faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish, jamiyat talablari va shaxsning ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Shunday qilib, talabaning ijtimoiy kompetentligi ko'p funktsionaldir va talabalar hayotning turli sohalarida ijtimoiy rollarni samarali bajarishini anglatadi. Ularning bir qatori quyidagilardan iborat:

- amaliy hayotda ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni amalga oshirish;
- shaxslar va ijtimoiy guruhlar, institutlar, davlat bilan o'zaro aloqada moslasha olishi;
- jamiyat yoki ijtimoiy guruhga qo'shilish;
- ijtimoiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirish;
- talabalarning haqiqiy bilim va ko'nikmalariga mos keladigan ijtimoiy mavqega ega bo'lishi;
- rolli xatti-harakatlar va ijtimoiy muxitga moslashtirish.

Ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) o'quv jarayoni-o'quv kurslarining o'quv dasturlariga kirish, ularning maqsadi kasbni rivojlantirishda va asosiy ijtimoiy rollarni bajarishda ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir; talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy va me'yoriy-huquqiy tayyorgarligi; biznes odob-axloq qoidalari va Oilashunoslik asoslarini bilish;

2) ta'lim jarayonidan tashqari ishlar – talabalarning oilaviy, kasbiy, ijtimoiy funktsiyalarini o'zlashtirishga qaratilgan qiziqish klublari kabi darsdan tashqari ishlarning bunday shakllarini izlash va sinovdan o'tkazish;

3) talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolarini tizimli diagnostikasi.

Talabalarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish jarayoni bir qator bosqichlarni o'z ichiga olishi aniqlandi: moslashuvchan, mahalliy-faoliyat, tizimli faoliyat, reflektiv. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish jarayoni - javobgarlik, uzluksizlik, yaxlitlik, izchillik, ochiqlik, ijodkorlik, mustaqillik tamoyillariga asoslanadi. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish jarayoni g'oyalarni yaratish, muammoli-tematik qidiruv, guruh tashkil etish

texnologiyasidan foydalangan holda foydali ijtimoiy ko'nikma va malakalarni (faoliyatni rejalashtirish, resurslarni hisoblash, natijalarni tahlil qilish, vaziyatning rivojlanishini bashorat qilish) takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Yigirmanchi asrning 90-yillarida ijtimoiy kompetentlik deganda shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi va inson hayotining barcha ijtimoiy sohalarida talabga ega bo'lgan shaxsning individual sifati tushuniladi. Ushbu davrda ushbu kontsepsiya fanlararo mavzu sifatida qaraladi va ushbu hodisaning murakkabligi, ko'pkomponentligi va ko'p qirraliligini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Ushbu tendentsiyani zamonaviy ilmiy ishlarda ham ko'rish mumkin.

Shunday qilib, ular ijtimoiy kompetentlikning og'zaki, kommunikativ, sotsioprofessional, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy funktsiyalarini taqdim etadi; ijtimoiy o'zaro munosabatlarning kompetentsiyalari tahlil qilinadi - jamiyat, oila, do'stlar va boshqalar bilan; aloqa sohasidagi kompetentsiyalar – o'zaro aloqa, shaxsiy va ishbilarmonlik hamkorliklar; "men" va "jamiyat" pozitsiyalari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.

Ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish uchun asos ma'lum bir jamiyat normalarini qabul qilishdir; o'ziga xos bilim, ko'nikmalarni kengaytirish, jamiyatga moslashishga erishish ko'nikmalarini o'zlashtirish; o'z harakatlarini anglash va belgilangan vazifalarga erishishda o'z qobiliyatlarini yetarli darajada baholash, ma'lum bir muammoni hal qilishda shaxsiy salohiyatingizni yangilash qobiliyati; o'zaro hamkorlikni tashkil etishning eng samarali usullarini va maqbul xatti-harakatlarni tanlash; oilasi, jamoasi, jamiyati oldidagi vazifasi.

Ijtimoiy kompetentlik deganda shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga sodiq bo'lgan ijtimoiy tajribasi tushuniladi, bu esa shaxsga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish va o'z resurslarini faollashtirish imkoniyatini beradi. Shaxs haqiqiy ijtimoiy voqelik to'g'risida xabardor bo'lishi, shuningdek, jamoa bilan muloqot qilishga tayyor bo'lishi, har qanday hayotiy vaziyatlarda qabul qilingan qarorlar uchun tegishli ravishda belgilangan ijtimoiy normalar uchun javobgar bo'lishi kerak. Har bir shaxs jamiyatda hayotning asosiy usullariga ega bo'lishi kerak, uning harakatlari tezkor va samarali bo'lishi lozim. Bu esa ayni damda biz

o'rganishimiz lozim bolgan dolzarb masalalardan biri – talabalarning ijtimoiy kompetentligidir.

Ijtimoiy kompetentlik tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi:

- 1) maqsadni belgilash.
- 2) boshqalarga yo'naltirish.
- 3) ijtimoiy harakatchanlik va inson faoliyati.

To'g'ridan-to'g'ri talabalarni ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish muammolarini - professional ta'lim va barcha yo'nalishdagi bakalavrlarni tayyorlash misolida ko'rib chiqamiz.

Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish muammolarini tashxislash uchun biz sotsiologik tadqiqotlar o'tkazdik.

So'rov natijasida biz tanlangan mutaxassislik respondentlarning ko'pchiligida hayotiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam berishini aniqladik. Mutaxassislikni tanlashning asosiy sabablari “OTMga kirishning eng haqiqiy imkoniyati” edi; “oliy ma'lumot to'g'risida diplom olish imkoniyati”; “kelajakdagi kasbga da'vat”; “odamlarga yordam berish istagi”. Ko'pgina tadqiqot ishtirokchilarining fikriga ko'ra, shaxsiy fazilatlar tanlangan mutaxassislikka mos keladi.

